جدید


Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2024-yil 8-noyabr
№ 46(46)
www.jadid-media.uz

SHARAFLI ZAMONDOSH



“...Sharof akaning adabiy-ijodiy merosiga o‘z vaqtida adabiyotshunoslar yuksak baho berishdi. Zero, uning “Qudratli to‘lqin”, “Bo‘rondan kuchli” romanlari ham bunyodkor insonlar hayotidan hikoya qiladi. Qo‘shiq bo‘lgan she’rlari, ayniqsa “Kashmir qo‘shig‘i” juda mashhur. Ushbu asarlarda Sharof akaning ijodkor sifatidagi yuksak mahorati va go‘zal qalbi aks etadi...”

(2-sahifada o‘qing).

MUNOSABAT



AHLI FAZL VA AHLI HUNARGA YUKSAK EHTIROM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 31-oktyabr – 1-noyabr kunlari Navoiy viloyatiga tashrif buyurib, yirik sanoat obyektlari, ishlab chiqarish korxonalari, ijtimoiy soha tashkilotlari vakillari bilan muloqot qildi, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun turtki berdi. O‘zbekiston iqtisodini rivojlantirish, ishlab chiqarishning yangi tizimlarini yo‘lga qo‘yish va bu borada viloyat rahbarlari, mutasaddilari, mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarning yo‘l xaritasini belgilab berdi.

Prezidentimiz 2025-yilni viloyat kesimida “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qildi. Bu nomlashda xalqimizga xos ma’lum bir ifoda orqali birdan ortiq ma’no anglatish mahorati mujassamdir. “Alisher Navoiy yili” birinchi navbatda buyuk mutafakkirning tafakkur mahsullari, ma’naviyat-ma’rifat tamoyillariga alohida e’tibor qaratishni nazarda tutadi. Ikkinchi jihatdan esa buyuk mutafakkirimiz nomi bilan yuritilgan viloyatga e’tibor qaratiladi, yil avvalida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi viloyatning turli ishlab chiqarish sohalari va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Respublikaning iqtisodiy rivojlangan viloyatida “Alisher Navoiy yili”ning joriy etilishi huquqiy-ma’naviy asoslarga ega. Alisher Navoiy hayoti davomida mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan, xalq farovonligi yo‘lida bir qator ishlarni amalga oshirgan. Xalq manfaati, mamlakat obodligi yo‘lida faoliyat olib borgan, boshqalarni ham shunga da’vat qilgan. Ijodkorning jamoat arbobi sifatida amalga oshirgan ishlari, avvalo, asarlarida, xotiralarida o‘z aksini topgan. Xususan, ijtimoiy-diniy amallar yuzasidan yo‘riqnoma qiymatiga ega bo‘lgan “Vaqfiya” asarida “Ilgimdan kelgancha zulm tig‘in ushotib, mazlum jarohatig‘a intihol malhamin qo‘ydim. Va ilgimdin kelmaganini ul hazrat arzig‘a yetkurdim”, deydi. Ta’mirlash ishlariga alohida e’tibor bergani, mamlakat obodligi va xalq manfaatini ko‘zlab yo‘l tutgani ma’lum bo‘ladi: “Madrasa va xonaqoh orasidakim, tosh solibdurlar – qachon buzulurdek bo‘lsa, yildin yilg‘a maramat qilsunkim, musulmonlarg‘a o‘tarborur dushvor bo‘lmag‘ay”.

Alisher Navoiy ilm, ijod ahliga rag‘bat ko‘rsatib, ularning tengsiz yaratiqlariga zamin yaratgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiy shaxsiyatini ta’riflar ekan, “Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha, murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay”, deb yozadi. Bobur bitiklaridan buyuk mutafakkirning ko‘plab xayriya ishlarini amalga oshirganini anglash mumkin: “Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo‘lmish bo‘lg‘ay”.

Alisher Navoiyning butun faoliyatida xalq manfaatini ustun qo‘ygani, mamlakat mulkini boyitishga xizmat qilgani ko‘p bora ta’kidlanadi. Xususan, Bobur shunday deydi: “Mirzodin nima olmas, balki yilda mirzog‘a kulliy mablag‘lar peshkash qilur edi”.

2025-yilning “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilinishi moddiy, iqtisodiy taraqqiyotning boy qadriyatlarga yo‘g‘rilgan ma’naviyat asosiga qurilishini ta’kidlashga xizmat qiladi.

(Davomi 3-sahifada).

ABADIY DO‘STLIK

TURKIY DUNYO RIVOJIDA YANGI BOSQICH

Dunyo tarixi hikmatlar xazinasiga to‘la ummonga o‘xshaydi. Bu xazinada olis o‘tmish saboqlari, mamlakatlar, tuzumlar tarixi va taqdiridan kelib chiqadigan, bugun va ertangi kun uchun ham g‘oyat muhim xulosalar mavjud. Gap ularni vaqtida anglashda. Uzoq-yaqin o‘tmish bilan bog‘liq xatolarni takrorlamaslik, oldinga qarab intilish, global muammolarni har bir tomon manfaatidan kelib chiqqan holda hal qilish harakati susaymasa bo‘ldi. Negaki, dunyoning bugungi ijtimoiy-ma’naviy holati barcha jabhalarda yakdil bo‘lishni, ko‘zlangan maqsad yo‘lida birlashishni, davlatlararo kooperatsiya imkoniyatlaridan unumli foydalanishni taqozo etmoqda.



Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning dunyo va mintaqa davlatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik, manfaatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, o‘zaro bordi-keldilarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga doir hayotbaxsh siyosati uzoq-yaqin mintaqalarda ham ijobiy aks sado bermoqda.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iziston mezbonlik qilgan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida so‘zlagan nutqida: **“So‘nggi yillarda Qirg‘izistonda barcha sohalarda olib borilayotgan jadal islohotlar va tub o‘zgarishlarga hammamiz guvoh bo‘lib turibmiz. Mamlakatda siyosiy-ijtimoiy barqarorlik ta’minlanayotgani, zamonaviy sanoat va infratuzilma obyektlari barpo etilayotgani, davlatning xalqaro obro‘si va nufuzi oshayotgani yaqin qardosh sifatida bizni cheksiz quvontiradi”,** deya mezbonga izzat hamda yaqin qo‘shnilik, chin qardoshlik munosabatini izhor qildi.

Mintaqa bo‘ylab hamkorlik siyosati mamlakatimizni jahon hamjamiyatiga yangi zamonaviy qiyofada namoyon etdi. O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosati umuminsoniy qadriyatlarga, el-yurt manfaati va millatning ertangi kuniga asoslanganini ko‘rsatdi.

Bugun mamlakatimizda, bizga yondosh-qondosh hududlarda ham O‘zbekiston tanlagan yo‘lning, davlatimiz rahbari tashabbuslarining amaliy natijalari ko‘zga tashlanmoqda. Yurtboshimizning qo‘shni davlatlar rahbarlari bilan imzolagan muhim bitim va kelishuvlari, yo‘llarning ochilishi, tashqi investorlar uchun huquqiy jihatdan kafolatlangan barqaror muhitning yuzaga kelishi o‘zaro aloqalarga yangicha ma’no-mazmun baxsh etdi.

Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda: **“Bugun Tashkilotimizning tarixiy hujjati – Turkiy dunyo xartiyasining qabul qilinishi qardosh davlatlar va xalqlarimiz o‘rtasida kuchayib borayotgan ko‘pqirrali hamkorlikning yorqin ifodasidir. Aminmanki, biz shu asosda Turkiy dunyoni yanada jipslashtirish, uning mavqeyini oshirish, o‘zaro manfaatli va do‘stona aloqalarimizni chuqurlashtirish, hamkorligimizni yangi bosqichga ko‘tarishga erishamiz”.**

Darhaqiqat, o‘tgan yillar davomida qardosh mamlakatlararo turli sohalarda yo‘lga qo‘yilgan samarali hamkorlik yanada rivojlanmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

ILM-U IRFON

ISHONCH VA IYMON BILAN

Qur’oni Karimning o‘zbek tilidagi yangi tarjimasi – “Anvorul-Qur’on: Fayzul-Furqon” kitobi xususida ayrim mulohazalar



Muhtaram Yurtboshimiz tomonidan ta’sis etilgan O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi mohir mutarjim Mirzo Kenjabek tomonidan tarjima qilingan “Anvorul-Qur’on: “Fayzul-Furqon” nomli Qur’oni Karimning o‘zbek tilidagi yettinchi tarjimasini yaqinda chop etdi.

Tarjimaga mufassir, hofizi Qur’on, o‘n qiroat bo‘yicha ijoza sohibi, ilohiyot fanlari doktori, professor Hasan Tahsin hazratlarining tarjimasi hamda ta’vil, izoh va sharhlari asos qilib olingan.

Shu o‘rinda alohida qayd etish lozimki, O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazining Qur’oni Karim zalida Hazrati Usmon Qur’oni, Katta Langar Qur’oni, shuningdek, ajdodlarimizga oid bo‘lgan 114 qo‘lyozma Qur’onlar namoyish etiladi.

O‘zbekiston Qahramoni, zukko adabiyotshunos olim, mohir tarjimon, o‘zbek tilining zargari Ibrohim G‘afurov o‘zining 2009-yil 16-aprelda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan “Qur’on tarjimalari: tajribalar” maqolasida shunday deb yozadi: “Istiqlol tufayli Qur’on va muqaddas hadislarni nashr etish, tushunishning yangi zamoni boshlandi. Qur’onni bilish va yuraklarga jo etishning yangi davri keldi” hamda “O‘zbekiston xonadonlariga Qur’onning o‘zbek adabiy tiliga bir emas, bir necha tarjimalari ishonch va iymon bilan kirib bordi”.

(Davomi 4-sahifada).

ZAMONAMIZ JADIDLARI

SAODAT DARVOZASI

– Agar omadim chopib, Ilhom akaday boy-badavlat bo‘lib ketsam, albatta, maktab quraman. Chunki yangi maktab binosi foydalanishga topshirilgan kuni bolalar-u kattalar ko‘zida porlagan quvonch sururi yuragimda qoldi, – deydi Bulung‘ur tumanidagi 72-maktab direktori Bektosh Qurbonov.

Darhaqiqat, maktab qurmoq shunday bir hotamlikki, Behbudiy bobomiz aytganlaridek, “makotib taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas...”

Ko‘p tarmoqli tadbirkor, “Ahmadbek Qurilish Trio” MCHJ bosh direktori Ilhom Rustamovni Samarqandda tanimagan odam yo‘q. U Bektosh Qurbonov rahbarlik qilayotgan 72-maktab binosini yangidan qurdi, bir necha ta’lim muassasalarining ta’miriga sarmoya kiritdi, mahallalarni obod qildi, yo‘llarni yaxshiladi. Ko‘pchilikka o‘rnak bo‘ldi. Qilgan xizmatlari uni el ardog‘iga loyiq qildi. Bugun Ilhom Rustamov “Do‘stlik” ordeni sohibi, faol tadbirkor.

Darvoqe, tadbirkor qurgan maktab Bulung‘urning Chorbog‘ mahallasida joylashgan, bir yarim gektar maydonni o‘z ichiga oladi. Ilgari maktab o‘rnida faoliyatini to‘xtatgan bir firmaning xarobasi bor edi. Yaroqsiz binoni zamonaviy o‘quv dargohi holiga keltirish oson bo‘lmadi. Poytaxt litseylaridan qolishmaydigan bino, uning atrofidagi manzarali daraxtlar, rang-barang gullar... Xullas, chekilgan zahmat o‘zini oqladi. Axir, tadbirkor bir qishloq maktabiga oz emas, qariyb olti milliard so‘m pul sarfladi.

Besh-olti kilometr masofa qatnab o‘qiydigan qishloq bolalarining uzog‘ini yaqin qilish ota-onalarning orzusi edi. Aholining, ayniqsa, mahalla raisi Abdusalom akaning kuyib-pishib “bolaginalar qiynalyapti-da”, deyaverishi tadbirkorning qulog‘iga yetdi.

(Davomi 2-sahifada).

KUN MAVZUSI



BOZOR YOKI TALABIMI SUN’IY HOSILA?

Ikki kun oldin shaharlik bir tanishim yozg‘irib qoldi: “Bozordagi narx-navoni nazorat qiladigan odam yo‘q – bir oy ichida go‘sht deyarli 50 foizga qimmatladi. Qassoblar ko‘ngliga tushgan narxni qo‘yishyapti. E’tiroz bildirsang: “Chorvani boqish oson emas, yem-ozuqasi qimmat. Odamlar boqqan mol-qo‘ylarini arzon sotgilari yo‘q. Men nima qilay?” deb yelka qisishadi. Bu masalani ko‘tarib chiqish kerak – hamma sohada tartib bo‘lgani yaxshi”.

(Davomi 6-sahifada).

XOTIRA

SHARAFLI ZAMONDOSH

Mamlakatimiz hududida yaqin tarixda yashab o‘tgan shaxslar xususida o‘ylaganimda, beixtiyor ularning oydin siymosi ko‘z oldimda gavdalanadi. Zero, O‘zbekiston tarixida yozilgan juda ko‘p sanalarni, voqea-hodisalarni zamonamiz yoshlari kitoblardan o‘qib o‘rganishadi. Biz yoshi ulug‘ insonlar esa o‘sha hodisalarning bevosita guvohi, ko‘pgina tarixiy voqealarning ishtirokchisi o‘laroq, millatning asl fidoyi fenomen shaxslariga maslakdosh va izdosh ham bo‘lganmiz.



XX asrda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy hayotida ulkan islohotlarni amalga oshirgan Sharof Rashidov ana shunday peshqadam tarixiy siymolardan biri edi. Men uchun ustoz maqomida bo‘lgan bu benazir shaxs to‘g‘risida o‘ylaganimda uning mislsiz tarixiy xizmatlari bir-bir xayolimdan o‘tadi. Zotan, aslo yemirilmas, parchalanmas bo‘lib ko‘ringan sovetlar ittifoqi davrida, mustabid tuzum hukmronligi ostida O‘zbekistonga birinchi rahbar bo‘lish oson emasdi. Barcha topshiriqlar markazdan turli hududlarga tarqalar va bu so‘zsiz bajarilishi lozim edi. Shunday bir qaltis vaziyatli muhitda Sharof Rashidov bilimi, odamiylik fazilatlari, o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbati tufayli obro‘ qozondi.

Bepoyon cho‘llarda paxta ekish uchun yangi yerlar ochildi. Amudaryo bilan Sirdaryo suvlarining aksariyat qismi shu dalalar tomon yo‘naltirildi. Bir zamonlar shu ishlarga bosh-qosh bo‘lgan, deya Sharof Rashidov nomini qoralashga urinishlar ham sezildi. Ammo bugun tarixiy haqiqat tiklandi. U kishining mamlakat obodligi, xalqning farovon turmushi yo‘lidagi fidoyiliklari hech qachon unutilmaydi. Chunki O‘zbekistonga yigirma yildan ortiq rahbarlik qilgan bo‘lsa, u o‘z shaxsiy manfaatlarini emas, balki Respublika aholisining foydasini, farovonligini ko‘zladi. O‘sha yillardagi bunyodkorlik ishlari sobiq ittifoqda bizga qo‘shni respublikalarning iqtisodiy ahvolidan yuksak bo‘lsa yuksak ediki, aslo kam emasdi.

Zero, hozir ham Toshkent shahriga ko‘rk bag‘ishlab turgan Xalqlar do‘stligi san’at saroyining barpo bo‘lishi, mamlakat markazida metropoliten qurilgani bu tarixiy qurilishlarga guvohi bo‘lgan biz kabi yoshi ulug‘ insonlarning hali hamon yodida.

Ittifoqning iqtisodiy umumqozonidan o‘zbek xalqi uchun zarur ulushni olish, mamlakat poytaxtida yer osti ulovini barpo etish rejasini o‘z vaqtida Gosplandan o‘tkazib tasdiqlatish uchun rahbarda yetarli jur’at, asosli dalillar hamda kuch-g‘ayrat bo‘lishi lozim edi. Sharof Rashidov shunday dadil, cho‘rtkesar, qat’iy va ayni damda, o‘ta yuksak ichki madaniyat sohibi edi. Insonlarga imkoni boricha yaxshilik qo‘lini cho‘zishga intilardi. Bugun ham Sharof akani ko‘rgan-bilganlarda iliq xotiralar bor. Deylik, bir ayolning taqdiri partiyaning ulkan bir majlisida hal bo‘lishi kerak. U sho‘rlik balki jinday xato qilgandir, kamchilik kimda bo‘lmaydi. Bunday pallada yig‘ilish a’zolari, kazo-kazolar o‘sha ojiza ustiga mag‘zava ag‘darish bilan mashg‘ul bo‘libdi, xato-kamchiliklarini ro‘kach qilibdi.

Respublikaning birinchi rahbari majlis ahlining fikrlarini tinglagach, “aybdor” ayolga savol beradi: “Necha nafar farzandingiz bor?” Partiyaning siyosiylashgan muhtasham majlisida bunday oilaviy savolni kutmagan ayol ibo bilan javob beradi: “Sakkiz...” Sharof aka hushyor tortadi va majlis ahliga bir-bir nazar tashlab chiqqach: “Biz uchun insonni qadrlash, xususan, ayol zoti hurmatini o‘z o‘rniga qo‘yish muhim. Muhtaram majlis ahli, o‘z ishida biroz kamchilikka yo‘l qo‘ygan, sakkiz farzandning onasi bo‘lgan bu hamkasbimizni o‘sha qorako‘zlar haqqi-hurmati kechirsak, nima deysizlar?!” degan mazmunda qat’iy so‘z aytadi. Shunda ayolning ko‘zlaridan yosh tirqirab chiqadi. Majlisdagi eng asosiy so‘zni aytadigan Markazdan kelgan vakil ham Sharof Rashidovning insoniyligi oldida lol qoladi va ayni qaror uchun qayta-qayta tashakkur aytadi. Insondan ana shunday ezgu ishlar, yaxshiliklar qoladi.

Bu bag‘rikeng rahbarning qo‘l ostidagilarga ko‘rsatgan karamidan birgina misol, xolos. Holbuki, u kishining faoliyatida shu kabi ibratli voqealar bisyor. Hurmat va ehtiromni birovdan, xususan, xalqdan so‘rab, tilanib olib bo‘lmaydi. U mehnat-mashaqqatlar, uyqusiz tunlar, qalb go‘zalligi va boshqalarga ko‘rsatilgan cheksiz muruvvat evaziga qozoniladi. Shuning uchun ham bu insonning mislsiz xizmatlaridan har bir yosh xabardor bo‘lishi lozim.

Ilm yo‘lida zahmat chekib, fidoyilarcha ishlagan hech bir o‘zbek olimi, ijodkori, mehnat faxriysi Sharof akaning e’tiboridan aslo chetda qolmasdi. U kishi ilm-fan, adabiyot va san’at ahliga qalban yaqin edi. Yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlardi.

Sharof akaning adabiy-ijodiy merosiga o‘z vaqtida adabiyotshunoslar yuksak baho berishdi. Zero, uning “Qudratli to‘lqin”, “Bo‘rondan kuchli” romanlari ham bunyodkor insonlar hayotidan hikoya qiladi. Qo‘shiq bo‘lgan she’rlari, ayniqsa “Kashmir qo‘shig‘i” juda mashhur. Ushbu asarlarda Sharof akaning ijodkor sifatidagi yuksak mahorati va go‘zal qalbi aks etadi.

Bugun mamlakatimizni dunyodagi ilg‘or, eng taraqqiy etgan davlatlardan biriga aylantirish va har bir fuqaroning farovon turmushi uchun kecha-kunduz jonfidolik qilib ishlayotgan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlik chog‘larida Sharof akadan oq yo‘l olganini ham bilaman. Bugun Prezidentimiz shunday sharafli yo‘lda mardona davom etayotgani bizni quvontiradi.

Sharof Rashidovning beqiyos tarixiy xizmatlarini yodga olish bilan biz unga o‘z hurmatimizni, minnatdorligimizni bildirgan bo‘lamiz. O‘z vaqtida bunday fikrlarni aytolmadik, u kishiga tashakkur izhor etolmadik. Bugun Sharof Rashidovni ko‘rgan ziyolilar qalbida ham xuddi men aytgan kabi xotiralar bo‘lishi tabiiy.

Oqil SALIMOV,
akademik

TURKIY DUNYO RIVOJIDA YANGI BOSQICH

Boshlanishi 1-sahifada.

Jumladan, madaniyat sohasida qadimdan mavjud an’analarning qayta tiklanishi ijodkorlarga yangicha ruh va kayfiyat baxsh etmoqda. Turkiy dunyo adabiyoti va san’ati vakillari hamkorligi kun sayin kuchayayotir. Yosh ijodkorlarning Buxoro shahrida o‘tkazilgan xalqaro forumida qo‘shni davlatlardan kelgan umidli qalamkashlar ham ishtirok etishdi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o‘tkazayotgan davra suhbatlarida bugun milliy adabiyotlarda qanday yangi oqimlar, yo‘nalishlar, nomlar paydo bo‘layotgani, badiiy tarjima masalalari, yaratilayotgan asarlar, ularning ma’no-mohiyati, yoshlar tarbiyasiga ta’siri xususida jonli bahs bormoqda. Ulug‘ yozuvchi Chingiz Aytmatov aynan shunday yo‘l tutish zarurligini, bunday bo‘lmasa, qondosh-yondosh xalqlar bir-biridan uzoqlashib, oxir-oqibatda bir-birlarini tarjimon orqali tushunadigan bo‘lib qolishini Toshkentda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi minbarida turib aytgan edi. Bunday jonli muloqotni yanada kuchaytirish, yosh ijodkorlar uchun ikki tilli (masalan, o‘zbekcha-qirg‘izcha, qirg‘izcha-o‘zbekcha) lug‘atlar chop etish g‘oyat muhim. Buning zarurati shundaki, bugungi ijod erkinligi sharoitida ulug‘ ajdodlarimizdan qolgan noyob fazilat – bir necha tillarni mukammal bilish, ikki tilda ijod qilish asta-sekin tiklanmoqda.

Ijodkorlar orasida o‘zbek va tojik, o‘zbek va qirg‘iz, o‘zbek va qozoq tillarida bemalol qalam tebratayotganlar oz emas. Adabiyot mintaqa xalqlari umumiy yo‘lini yorituvchi mash’ala ekan, zullisonaynlik bu yo‘lni yanada oydinlashtirishi shubhasiz. “O‘zbekistonda mening asarlarim asosida o‘ndan ortiq spektakllar namoyish etilganidan faxrlanib yuraman, – degan edi taniqli qirg‘iz dramaturgi Mar Boyjiyev. – Yon qo‘shnimizda bo‘layotgan inqilobiy o‘zgarishlar mamlakatingizni dunyo kengliklariga dadil chorlamoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan xalqchil siyosatga havas qilsa bo‘ladi”.

O‘zbek va qirg‘iz adabiy aloqalari XIX asrdayoq bir maromda rivojlana boshlagani tarixdan ma’lum. Tadqiqotchi olim Zuhriddin Isomiddinovning yozishicha, Qo‘qon xoni Muhammad Alixon asrning 20-yillari o‘rtalarida tashqi dushmandan muhofazalanish uchun hozirgi Bishkek, To‘qmoq, Qorabolta shaharlari o‘rnida mustahkam qal’alar qurdirib, qirg‘iz yoshlari uchun maktablar ochilgan, madrasalarda ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Qirg‘iz badiiy so‘z san’atining o‘zbek xonadonlariga kirib kelishida ikki ulkan adabiy voqelik – “Manas” eposi hamda ulug‘ yozuvchi Chingiz Aytmatov asarlarining o‘rni alohida.

O‘zbek va qirg‘iz tili, madaniyati va san’atida, xalq og‘zaki ijodi, urf-odat va qadriyatlarda muhim mushtaraklik mavjud. Bu jihatlar madaniy-gumanitar aloqalar rivojida hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Qirg‘izistonda bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida “Qardosh xalqlarimizni bir-biriga yanada yaqinlashtirish, yoshlarimizni ajdodlarimizga munosib ruhda tarbiyalash maqsadida turkiy ellar folklorining ko‘p jildli majmuasini a’zo mamlakatlar tillarida nashr etsak, manzur ish bo‘lar edi”, deya Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bildirgan taklif nafaqat o‘zbekistonlik, balki butun mintaqa ijodkorlarini, so‘z va adabiyot muhiblarini juda ham quvontirdi.

“So‘zimning yakunida bir fikrni alohida ta’kidlamoqchiman, – dedi Yurtboshimiz Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida so‘zlagan nutqi yakunida. – Tashkilotimiz doirasidagi amaliy hamkorligimiz shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘z pozitsiyalarimizni mustahkamlash, turli tahdid va yangi xavf-xatarlarning oldini olish, aloqalarimizni yanada chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda”.

Haqiqatan ham, bugun olib borilayotgan oqilona siyosat sabab qardosh turkiy xalqlar, xususan, ildizlari bir, qarindosh, qo‘shni o‘zbek-qirg‘iz ellari uzoq kutilgan totuvlik, ahil-inoqlik zamonining muattar nashidasidan bahramand bo‘lmoqda.

Ahmadjon MELIBOYEV

SAODAT DARVOZASI

Boshlanishi 1-sahifada.

Ha, mahalla raisini tashkilotlar “yomon ko‘rib” qolgani rost. Negaki, u mahallaning obodligi, odamlarning ehtiyoji uchun ko‘ringanning “boshini qotiradi”. Yordami tegishi ehtimolli odam borki, u vakolatli shaxsmi yo oddiy o‘ziga to‘q oila vakilimi, bundan qat’i nazar, hamkorlikka undaydi. “Meni o‘ziga bosh qilgan elning oldida burchim bor”, deydi u. Zotan, “Chorbog‘” tevarak-atrofdagi boshqa mahallalar oldida farovon ko‘chalari, tinch oilalari bilan ajralib turadi. Bu mahallaning hatto ichki yo‘llariga ham asfalt yotqizilgan. Hamma joy toza, ozoda. Mahallaning saranjom-sarishtaligida Abdusalom akaning bevosita o‘rni bor.

Qishloqning qoq o‘rtasidan o‘tgan anhor bo‘ylab ketar ekanmiz, yo‘l-yo‘lakay hovlilardagi tokzorlarni ko‘rib havas qildik. Maktabga yetgunga qadar birorta ham yerbag‘ir xonadonga ko‘zimiz tushmadi. Bizga peshvoz chiqqan maktab direktori Bektosh Qurbonov: “Opa, shu “bir mahalla, bir mahsulot”, degan gap zo‘r bo‘ldi-da. Bu yerlar lalmi yerlar, uzumi serhosil bo‘ladi, odamlar tomorqadan daromad ko‘rishni kasb qilib oldi”, dedi.



Suhbatimiz tomorqadan boshlanib, yangi maktab mavzusida davom etdi. 2023-yilning 1-sentyabrida foydalanishga topshirilgan 240 o‘rinli ta’lim muassasasi ikki smenada faoliyat yuritadi. 33 nafar malakali pedagog kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tegishli buyruqlari bilan tanlovga tavsiya etilib, saralab olingan. Ayrim fanlarga mutaxassis yetishmagani uchun boshqa maktabdan bir-ikki o‘qituvchi jalb qilingan, xolos.

Direktordan qishloq maktablarini eng ko‘p qiynaydigan muammo – isitish tizimi haqida so‘radik. Ikkita binoning bitta katta qozon orqali isitilishini ko‘rib savol tug‘ilgandi-da. O‘qituvchi va o‘quvchilardan muammo yo‘qligini bilgach, xotirjam tortdik.

Maktabning sakkizta o‘quv xonasi mavjud: ikkiga bo‘lib o‘tiladigan fanlar uchun ikkita alohida sinfxona, uchta qo‘shimcha darsxona va kutubxona, 120 o‘rinli faollar zali, sport maydoni, parta, doska, shkaf, stol-stullar... Xullas, hammasi risoladagiday.

To‘g‘ri, sport zali hozircha yo‘q. Chiniqtiruvchi mashg‘ulotlar sport maydonida o‘tiladi. Qishda issiqqina sinf xonalarida shaxmat-shashka va yengil mashqlar bilan kifoyalaniladi. Direktorning aytishicha, bu masala tez orada hal bo‘lishiga shubha qilmasa ham bo‘larkan.

– Tumanning maktab va maktabgacha ta’lim boshqarmasida ishlab yurib, binoning qurilish jarayonini ko‘rgandim, – deydi Bektosh Qurbonov. – Dilim ketib, shu maktabga rahbar bo‘lish, uni eng namunali maktablar safiga olib chiqish istagi paydo bo‘ldi. Direktorlar tanloviga hujjat topshirdim. 24-dekabrda direktor vazifasini bajaruvchi sifatida buyruq chiqdi. Yangi yil arafasi. Maktabga kelaman, ketaman. Darslar boshlanguncha kecha-yu kunduz shu yerda bo‘ldim. Ishni nimadan, qanday boshlash kerak, degan o‘ylar, qolaversa, hayajonlar uyqu bermasdi.

Ha, har bir ishning boshlanishi shu ishning yarmiga teng, deydilar. “Chorbog‘” mahallasining o‘qish yoshidagi bolalari to‘rt maktabga yoyilib ketgandi. Muassasaning to‘laqonli ishga tushishi ikkinchi chorak yakuniga to‘g‘ri keldi. Rejalar tuzildi, xonadonma-xonadon yurib, mahalladagi o‘quvchi bolalar ro‘yxati shakllantirildi. O‘quv yilining yarmi emasmi, shu maktabda o‘qiyman, deb xohish bildirganlar soni 200 nafarga ham yetmadi.

– Tashviqotni kuchaytirdik, – deydi direktor. – Bir amallab o‘qishni boshladik, deganimizda katta sinf o‘quvchilari bizni biroz qiynadi. Olib kelamiz, ular avvalgi maktabiga ketib qolaveradi. “Sinfdoshlarim” deydi. Mahalla noziri bilan haftalab o‘quvchilar ortidan yurdik. Xullas, o‘sha kunlari yalinganday bola yig‘dik. Hozir har bir sinfda 35 nafargacha o‘quvchi bor. Endi vaziyat tamomila boshqacha. Yangi o‘quvchilar qabulini cheklashga majburmiz. Ammo maktab binosi, shart-sharoitlari ko‘ngildagiday bo‘lgani uchun hamma bolasini shu yerda o‘qitgisi keladi.

Yangi maktab binosi bilan bir kunda davlat tomonidan qurib bitkazilgan yangi bog‘cha binosi foydalanishga topshirildi. Suyunchisiga “Chorbog‘”ning “bo‘larmon”lari elga osh berdi, ochilish marosimi katta tantanaga aylandi.

72-maktab yon-veridagi o‘quv dargohlardan chora-tadbirlari, ustozlarga qo‘yilgan qat’iy talablari bilan farq qiladi. Faoliyat boshida saralanayotgan o‘qituvchilar oldiga muayyan shartlar qo‘yildi, sinov muddati belgilandi. Ish nizomiga ko‘ra, rahbariyat ularning darslarini kuzatib, to‘rt nafarining faoliyati qoniqarsizligini aniqladi. Dalolatnomalar tuzilib, savol-javoblar o‘tkazildi. O‘qituvchilarning o‘zlari malaka oshirishlari kerakligini tan olishdi. Talabchanlik o‘z kuchini ko‘rsata boshladi. O‘tgan o‘quv yilini uch nafar o‘quvchi oltin medal bilan tugatdi.



– Yangi joyda rahbarlik qilishning bitta yaxshi tomoni bor, – deydi maktab direktori. – Hamma ishni yangi sahifadan boshlaysiz va ish boshida o‘zingiz turasiz. Oldingi rahbarning chalasini to‘ldirmaysiz.

Muammolarni o‘rganish jarayonida bilganim – bitta ish o‘rnini ikki-uch kishiga berib bo‘lmas ekan. Sayyor o‘qituvchining mehriyam sochma bo‘ladi. Bir joyda uzoq ishlagan xodim esa vazifasiga mehr qo‘yadi. Fan o‘qituvchilarini dars soatidan qismaslik lozim. Bir yarim stavkada ishlasa ham mayli. Tup qo‘yib, palak yoysa, muhabbat bilan ishlasa, natijasi ham a’lo bo‘ladi.

Maktab direktorining oqilona fikrlariga biz ham qo‘shildik. Jadidlarimiz orzu qilgan istiqbolli avlodni jahon taraqqiyoti shohsupasiga olib chiqish yo‘lida harakatlar boshlanganidan, yoshlarga e’tiborning kuchayganidan quvondik.

Muhayyo PIRNAFASOVA

AHLI FAZL VA AHLI HUNARGA YUKSAK EHTIROM



Boshlanishi 1-sahifada.

Alisher Navoiy insonlar o‘rtasidagi samimiy munosabat masalasiga e’tibor qaratgan. Moddiy va ma’naviy sog‘lomlikni, saxiylikni, to‘g‘ri so‘zlikni, mehr-muruvvatli bo‘lishni targ‘ib qilgan:

Futuvvat barcha qilmakdur – demak yo‘q,
Muruvvat barcha bermakdur – yemak yo‘q.

Insoniy fazilatlarni ulug‘lagan. Tanqidni to‘g‘ri qabul qilish, tanqidchiga kamchiliklarni ko‘rsatuvchi oyna sifatida munosabatda bo‘lish lozimligini ta’kidlagan:

Kishi aybing desa dam urmag‘ilkim,
ul erur ko‘zgu,
Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi – o‘zga aybing
zohir aylarmu?

Alisher Navoiy xalqaro doiradagi munosabatlarning ham asosiy yo‘l-yo‘rig‘ini ko‘rsatib berdi. Bugungi kunda mutafakkirning Yaponiya sarhadlarida ezgulikka da’vat etib turgan:

“Olam ahli bilingizkim ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘ling bir-biringizgakim erur yorlig‘ ish”

degan hikmati dunyo miqyosidagi chaqiriqqa aylanishi zarur. Bu hikmatning anglanishi mamlakatlar, millatlar o‘rtasidagi ko‘plab nizolarga barham bergan bo‘lur edi...

Prezidentimiz Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida “yashil makon” harakatini amalga oshirishga katta e’tibor berdi. Bugungi kunda dunyo shaharlarida ko‘chat o‘tkazish, daraxt ekish, ekologiyani tozalashga alohida diqqat qaratilmoqda. Alisher Navoiy o‘z davrida mamlakatni adolat bilan boshqarish g‘oyasini ilgari surgan. Xalq farovonligi, mamlakat obodligi yo‘lida faoliyat olib borishga da’vat qilgan:

Raiyat galav-u – sen sho‘bon,
Raiyat musmir-u – sen bog‘bon.
Bo‘rini dog‘i galadin dur qil,
Suv beribon bog‘ni ma’mur qil.

“Suv berib bog‘ni ma’mur, ya’ni obod qilish” hozirgi “yashil makon” harakatining mohiyatini tashkil etadi. Shoir xalq farovonligini, shuningdek, mamlakat obodonligini targ‘ib qilgan.

Alisher Navoiy o‘z qahramonlari orqali xalq manfaatini ustun qo‘yish, el-yurt koriga yarash g‘oyasini ilgari suradi. “Saddi Iskandariy”da ideal shoh timsolini yaratgan. Farhod timsolida tog‘-u toshlardan yo‘l ochish va suv keltirish tasvirlari orqali xalq, el-yurt manfaati yo‘lidagi mehnatga, mashaqqatlarni yengib o‘tishga chorlagan.

Alisher Navoiy “Tilga e’tibor – elga e’tibor” masalasini kun tartibiga qo‘ygan. Til millatning mavjudlik shartidir. Bugungi kunda taraqqiyoti kafolatlangan tillar, yo‘qolish arafasida turgan tillar, yo‘qolish ehtimoli mavjud tillar, yo‘qolib borayotgan tillarga ajratiladi. Dunyo tajribasidan kam aholi so‘zlashayotgan tillarning muhofaza qilinayotgani, til sohiblarining sa’y-harakatlari o‘laroq yashab kelayotgani ma’lum. Hatto faqat og‘zaki ko‘rinishda muloqot vositasi bo‘lib kelayotgan tillar ham mavjud. Alisher Navoiy til va elni bir butunlikda tavsifladi. Uning til, nutq, so‘z haqidagi qarashlari ma’naviyat taraqqiyoti uchun muhim qiymatga egadir. Shoir so‘z, uning mohiyati haqida aksariyat asarlarida to‘xtalib o‘tgan:

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilki guhari sharifroq yo‘q ondin.

So‘zni, ya’ni tilni tiriklik belgisi sifatida tavsiflagan: So‘zdurki, nishon berur o‘lukka jondin... “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida so‘zni durga qiyoslagan: “…so‘z durredurkim, aning daryosi ko‘nguldur va ko‘ngul mazharedurkim, jami maoniyi juzv va kuldur (ya’ni “…so‘z bir dur bo‘lib, uning daryosi ko‘ngildir. Ko‘ngil shunday bir joy bo‘lib, so‘zning barcha – katta-kichik ma’nolari unda jam bo‘ladi”). Bu jumlada ko‘ngil so‘z vatani sifatida tasvirlangan, nutq mexanizmi, imkoniyatlari, nutqning shakllanish o‘rni, “idrok”, “ong” tushunchalarini ifoda etmoqda.

Buyuk mutafakkir g‘avvosni durning noyob xususiyatini namoyish qiluvchi va javharning qiymatini zohir qiluvchi sifatida keltiradi. Nutq so‘zlovchini ko‘ngildagi so‘z durini nutqqa olib kiruvchi va so‘zning qo‘llanish darajasini, qiymatini namoyon etuvchi sifatida ta’riflaydi: Andoqki, daryodin gavhar g‘avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharig‘a ko‘ra zohir bo‘lur (“Bu shunga o‘xshaydiki, gavhar daryodan g‘avvos vositasi bilan chiqariladi, uning qiymati esa toshiga qarab belgilanadi”).

Til axborot berish bilan bir qatorda fikrni rivojlantirish omili hamdir. Alisher Navoiy:

Ki har ishni qildi odamizod,
Tafakkur birla qildi oni bunyod,

– deb yozadi hamda til va tafakkurni bir butunlikda talqin qiladi. Darhaqiqat, eng ilg‘or innovatsion g‘oyalar tafakkur orqali shakllanadi. Kashfiyot va ixtirolarning negizida yuksak darajada takomillashgan tafakkur yotadi. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da “tez fahmlilik”, “yuksak idrok”, “samimiylik”, “poklik” kabilarni turkiy xalqlarga xos belgilar sifatida qayd etgan: “andoq ma’lum bo‘lurki, turk ...tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq maxluq bo‘lubtur... Mazkur fazilatlarni shunchaki bayon qilib qolmasdan, uning mohiyatini ham yoritib o‘tadi. Yuqoridagi xos belgilarni turklarning sidqidil, sof, to‘g‘ri niyatlariga bog‘laydi: “...va bu hol turklarning sidq va safo va tuz niyatidin ...zohir durur”. Ushbu satrlar buyuk mutafakkirlar vorislari bo‘lmish yoshlarimizning ham tafakkur imkoniyatlari kengligiga bir dalildir.

Prezidentimiz Navoiy viloyatiga amalga oshirgan tashriflarida yoshlarga alohida e’tibor qaratdilar. Ularning Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda alohida tirgak ekanliklarini ta’kidlab o‘tdilar. Hazrat Alisher Navoiyning asrlar osha aytgan fikrlari ham bugungi yoshlarning bunyodkorlik, yaratuvchanlik harakatlariga mos keladi:

Kim oy uza qo‘yg‘asen qadamni,
Kim lavhiga chekkasen raqamni.

Tashrif doirasida “Hazrat Navoiyni anglash – o‘zligimizni anglash” mavzusidagi tanlovning tashkil etilishi Navoiy hikmatlariga, o‘gitlariga, tafakkur mahsullariga murojaat qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Tanlovda ko‘pchilik g‘olib bo‘la olmaydi. Lekin shunisi ahamiyatliki, tayyorgarlik ko‘rish



jarayonida ko‘plab yurtdoshlarimiz Navoiy ijodini chuqur anglab yetish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tanlov ziyoli bo‘lmagan qatlamning ham Navoiy ijodiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili”ning e’lon qilinishi shu ma’muriy hudud aholisining shoir ijodiga bo‘lgan yangicha yondashuvlariga asos bo‘ladi. Navoiy ijodiga bag‘ishlangan turli kechalar, tadbirlarning uyushtirilishi buyuk mutafakkir ma’rifatining keng qatlamdagi aholi shuuriga jo bo‘lishiga xizmat qiladi. “Alisher Navoiy yili” nafaqat buyuk mutafakkir nomi bilan yuritilayotgan viloyatda, balki butun respublika miqyosida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning keng ko‘lamda olib borilishini, yurtdoshlarimiz qalbiga asrlar osha o‘tib kelayotgan umrboqiy haqiqatlarning singishini ta’minlaydi. Qolaversa, viloyatning Alisher Navoiy ma’rifatini butun respublika va ayrim xorijiy mamlakatlar bo‘ylab keng yoyish ishlariga yetakchilik qilishini ham ifoda etadi.

Prezident tashrifi Navoiy viloyatida amalga oshiriladigan keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlari loyihasiga ham asos bo‘ldi. Aholi sayilgohlari, Navoiy davlat universiteti, ko‘p qavatli turar joylar, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, kutubxona, hunarmandlik ustaxonalarini o‘zida jamlagan “Yangi Navoiy” shaharchasining bunyod etilayotgani respublikamizda yana bir ma’naviyat-ma’rifat o‘chog‘ining yaratilayotganini ko‘rsatadi.

Amfiteatr, sun’iy ko‘l va favvora, yopiq suzish havzasi, kutubxona, restoran, kafelar, bolalar o‘yin maydonchalari, yo‘l harakati mashg‘ulotlari maydonini o‘zida mujassam etgan “Yangi O‘zbekiston” bog‘ining barpo etilishi serquyosh zamin manzarasi va havosidan bahramand bo‘lish imkonini beradi. Navoiy viloyatining transport vositalarida oltin qidirish va qazib olish jarayonlari yoritilgan maxsus sahnalarni aks ettiruvchi Dark Ride markazi nafaqat respublikamiz aholisi, balki xorijlik turistlar uchun ham qizg‘in sayohat maydoniga aylanadi.

Alisher Navoiy muzeyining tashkil qilinishi, ijod mahsullari manzarasi buyuk mutafakkir asarlari ta’sir doirasini yanada kengaytiradi. Shoir ijodini yangicha yondashuv asosida tadqiq etishga, ta’lim bosqichlarida o‘rganish metodologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mavjud ta’lim muassasasi negizida tashkil etilgan Navoiy davlat universiteti hamda respublikaning taniqli navoiyshunos olimlari buyuk mutafakkir ijodiga oid ilmiy-pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlarni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yadilar.

Bizning universitetimiz ham buyuk mutafakkir nomi bilan ataladi. Universitetimiz tashkil topgan sanadan buyon Alisher Navoiy ijodini yangi yo‘nalishda tadqiq etish, xorijiy tillarga tarjima qilish borasida ko‘plab yutuqlarga erishildi. Prezidentimizning Navoiy viloyatiga tashrifi asosida belgilangan chora-tadbirlar universitetimiz jamoasi oldiga ham mas’uliyat bilan amalga oshirish lozim bo‘lgan bir qator vazifalar qo‘ydi. Alisher Navoiy ijodini adabiyotshunoslik, matnshunoslik, tilshunoslik yo‘nalishda tadqiq etish, buyuk mutafakkir ijodini o‘rganish yuzasidan metodologik jamlanma, multimedia, kompyuter o‘yinlari, mobil ilovalar va elektron lug‘atlar yaratishda universitetimiz olimlari, taniqli navoiyshunoslari ishtirok etadilar.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev haqli ravishda qayd etganlaridek, “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur”.

Universitetimiz olimlari Navoiy pedagogika instituti professor-o‘qituvchilari bilan ilmiy va pedagogik faoliyat, ilmiy loyihalar, professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimida hamkorlik qilib keladi. Prezidentimiz tashrifi ushbu hamkorlikni yangi bosqichda, takomillashgan ko‘rinishda davom ettirishga zamin hozirladi.

Alisher Navoiy asarlari falsafiy mushohadalarga, purma’no so‘zlarga, chuqur mantiqiy xulosalarga boy bo‘lishi bilan bir qatorda sharq xalqlariga xos madaniy munosabatlar, urf-odat, an’analarni yoritishda ham muhim o‘rin tutadi.

Alisher Navoiy asarlari ko‘p yillardan beri o‘rganilib kelinmoqda. Hozirda olib borilayotgan tadqiqotlar buyuk mutafakkir ijodining yangi qirralarini kashf etmoqda, undagi ibratli fikrlarni, o‘tmishda aytilgan bugunning gaplarini ilg‘ab olishga yordam bermoqda.

Globallashuv davri, axborotning tezkor uzatilish ehtiyoji, texnik vositalar takomili, elektron manbalarning keng tarqalishi kitobga e’tiborning biroz susayishiga sabab bo‘lgandek. Ammo bugunning zukko avlodi texnik vositalar bilan bir qatorda kitob mutolaasiga ham jiddiy e’tibor berish lozimligini, ajdodlar tafakkur ziyosini amaliyotga tatbiq qilish ehtiyojini anglab yetmoqda. Buyuk ajdodlarimiz ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratganlar. Xususan, jadid ma’rifatparvarlari yoshlarni ma’naviyat asoslarini egallashga, bilim olishga da’vat etganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmsizlikni qoralab, “Vatanda yashab turib bevatan qolish” halokatiga sabab bo‘lishini ta’kidlagan edi. Yangi O‘zbekiston qudrati ilm-ma’rifatli, ma’naviy jihatdan boy, axloqan to‘kis yoshlar bilan belgilanadi. Bunday yoshlarning safini kengaytirish, ularda kitobga, mumtoz madaniy merosga, milliy qadriyatlarga mehr-muhabbat uyg‘otish ziyolilarning, pedagoglarning mas’uliyatli burchidir. Hozirgi vaziyatda ta’lim-tarbiya tizimini muayyan maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish lozim, toki yoshlarimiz Navoiy dahosidan ibrat olsinlar, tafakkur qudratidan hayratlansinlar, tengsiz badiiyat namunalaridan bahramand bo‘lsinlar.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida shunday yozadi: “...umidim uldur va xayolimg‘a andoq kelurkim, so‘zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi a’lo darajadin o‘zga yerni beganmagay”. Darhaqiqat, ulug‘ shoir, mutafakkir, mislsiz aql-idrok, tengsiz mahorat sohibi Alisher Navoiy so‘zlari “avjdin quyi inmagay”, daho ijodkor asarlarida aks etgan umrboqiy haqiqatlar “a’lo darajadin o‘zga yerni beganmagay.”

Shuhrat SIROJIDDINOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik


Zulxumor XOLMANOVA,
filologiya fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

7-NOYABR – ABDURAHMON JOMIY TAVALLUD TOPGAN KUN



BAHRAMANDLIK BAXTI

Azaldan Samarqand dunyo sivilizatsiyasi markazlaridan biri hisoblanadi. “Zamin sayqali” deb ta’riflangan bu shahardan ko‘p olim va mutafakkirlar yetishib chiqqan va ular jahon tamadduni rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Birgina hadisshunoslik yo‘nalishida mingdan ortiq muhaddislar Samarqandda yashab barakali ijod qilgan. XV asrning buyuk shoir va mutafakkiri Abdurahmon Jomiy ham bir muddat Samarqandda ta’lim olgan va dars bergan. U 21 yoshida nujum (astronomiya) ilmi bo‘yicha risola yozib, Samarqandga jo‘natadi. Qozizoda Rumiy bu risolani o‘qib chiqqach, Jomiyning favqulodda iste’dodini hisobga olib, uni Samarqandga taklif qiladi.



Jomiy shaharga kelib, Qozizoda Rumiydan matematika, hisob va nujum ilmlarini o‘rganadi. Shuningdek, Ali Qushchi va Fazlulloh Abulays kabi olimlarning bilim va tajribalaridan bahramand bo‘ladi. U Hirotda bo‘lgan paytida ham samarqandlik olimlardan saboq olgan. Akademik Botir Valixo‘jayevga ko‘ra, Hirotda Jomiyga Mir Sayid Jurjoniyning shogirdi Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy dars bergan. U buyuk olimlardan asosiy ilmlarni o‘rgangandan keyin Mirzo Ulug‘bek madrasasida 1452-yilgacha faoliyat yuritgan.

Qozizoda Rumiy Mirzo Ulug‘bekning Samarqandda bo‘lib o‘tgan majlisida Abdurahmon Jomiyga ishora qilib, bunday yosh zakovatli inson so‘nggi 500 yil ichida Amu daryosidan Movarounnahr diyoriga o‘tmaganini ta’kidlaydi.

Mavlono Abdurahmon Jomiy jahon ilm-u madaniyatining boshqa buyuk namoyandalari kabi barcha xalqlarning sevimli shoiriga aylangan. Uning asarlari turli tillarga tarjima qilingan va nashr etilgani buning dalilidir. Jomiy tafakkuri mahsuli hech qachon biror til yoki davr bilan cheklanib qolmagan. O‘zbekistonda ham Jomiyning ilmiy va adabiy merosiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2018-yili O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga tashrifi munosabati bilan taniqli adabiyotshunos Olimjon Davlatov ssenariysi asosida “Abdurahmon Jomiy” nomli film suratga olingani bu buyuk mutafakkirga bo‘lgan hurmat va ehtirom ramzidir.

O‘zbekistondagi kutubxonalarda Abdurahmon Jomiy ilmiy va adabiy asarlarining yuzlab qo‘lyozmalari nusxasi Samarqand davlat universiteti kutubxonasida saqlanadi. Hozirgi paytda O‘zbekiston Fanlar akademiyasidagi Sharqshunoslik institutida mutafakkir shoir asarlarining 550 ta qo‘lyozma nusxasi mavjud. Ular kelgusidagi tadqiqotlar uchun katta manba bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Jomiy asarlari asosida ishlangan miniatyuralar ham muzey va kutubxonalardan joy olgan.

O‘zbekistonda jomiyshunoslik kun sayin rivojlanmoqda. Samarqand davlat universiteti va boshqa ilmiy tadqiqot muassasalarida Jomiy asarlarini o‘rganish va tadqiq qilish ishlari izchil davom etmoqda. Yaqinda SamDU dotsentlari S.Majidova va D.Nazarova tadqiqot ishlarini Jomiy ijodi bo‘yicha himoya qilganlari buning isbotidir.

Mutafakkir shoirning 600 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda “Jomiyning ijod olami” nomli ilmiy maqolalar to‘plami nashr etildi. Undan O‘zbekiston olimlarining Jomiy hayoti va ijodi bo‘yicha ilmiy mulohazalari joy olgan.


2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so‘zboshisi bilan Jomiyning “Muhabbat mahzani” kitobi nashr etildi va Tojikiston Prezidentiga taqdim qilindi. Taniqli shoir va tarjimon Mirzo Kenjabek mazkur to‘plamga mutafakkir shoir asarlarining eng sara tarjimalarini kiritgan. Ayni paytda O‘zbekiston Kinematografiya agentligi hamda “Tojikfilm” hamkorligida “Jomiy va Navoiy” badiiy filmini yaratish jarayoni davom etmoqda. Bu ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga qaratilgan ishlar bo‘yicha muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Movarounnahr xalqiga Abdurahmon Jomiyning muhabbati cheksiz edi.

Uning “Tuhfat ul-ahror” masnaviysi hamda boshqa asarlari naqshbandiya tariqati vakili, Samarqandning buyuk allomasi Xoja Ahror Valiyga bag‘ishlangani xalqimizga insoniy hurmat va muhabbati cheksizligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xusrav HAMIDOV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

ISHONCH VA IYMON BILAN



Akmal SAIDOV, akademik

Boshlanishi 1-sahifada.

QUR’ONI KARIM VA UNING TARJIMALARI

Qur’oni Karim – buyuk Robbimiz Alloh taoloning mo‘jiza Kalomi, yer yuzini nurga, hidoyatga, rahmatga to‘ldirgan muqaddas va muborak So‘zdir. Qur’on musulmonlar uchun dasturilamal – Muqaddas kitob, amal qilib yashaladigan Ilohiy Qonundir. Qur’oni Karim – “Mehribonlik” kitobidir.

Qur’oni Karim Alloh tomonidan Muhammad alayhissalomga tushirilgan vahiylar to‘plamidir. Vahiylar deganda Allohning Payg‘ambarimizga jo‘natgan diniy ko‘rsatmalari tushuniladi. Qur’oni Karim samoviy kitoblarning oxirgisidir. Qur’oni Karimning ilmiy asoslangan 66 ga yaqin nomi bor. Qur’on, Furqon, Burhon, Kitob, Zikr, Tanzil, Nur, Mus’haf shular jumlasidandir. 23 yil davomida nozil qilingan bu ilohiy kitobda 30 pora, 114 ta sura bo‘lib, har bir sura uch yoki undan ko‘p, jami 6236 oyatdan tashkil topgan. Eng qisqa oyatlar “Toxo” va “Yosin”, eng uzun oyat “Baqara” surasining 282-oyatidir. Bu oyatlarda Alloh olamdagi eng kichik zarralardan tortib, bo‘lgan va bo‘lajak tarixiy voqea va hodisalar to‘g‘risida Payg‘ambarimizga xabar bergan.

Qur’oni Karim oyatlarining 63 foizini Makkada, 37 foizini Madinada nozil bo‘lgan oyatlar tashkil etadi. Ya’ni Makka oyatlari 4780, Madina oyatlari 1456, jami bo‘lib 6236 oyatdir.

Kalomi sharifning til va bayon jihatidan ilohiy mo‘jizaligi u arab tilida o‘qilib, ma’nolari tushunib borilganida to‘la namoyon bo‘ladi. Boshqa har qanday tilga o‘girilganda arab tiliga xos xususiyatlar, nazmiy uslub, maftunkor ohang va ruhiy ta’sir o‘z kuchini qisman bo‘lsa-da, yo‘qotadi. Tarjimon har qancha mahoratli, tajribali, o‘z milliy lug‘atiga boy bo‘lmasin, oyatlarning arabcha holatidagi mazmunini boshqa tilda mukammal ifoda etishi mumkin emas. Arab tilida o‘qish va mazmunini anglash esa hammaning ham imkoniyati darajasidamas. Qur’oni Karimni boshqa tillarga tarjima va tafsir qilish harakati ancha qadimdan boshlangan. Ayniqsa, arab bo‘lmagan xalqlarning Islom dinini qabul qilishlari bu harakatda asosiy omillardan bo‘lgan.

Ibrohim G‘afurov haqli ta’kidlaganidek, “Qur’on yolg‘iz arab tilli xalqlarning emas, Yer yuzidagi barcha xudojo‘y, pokdil, yaxshilik tuyg‘usi bilan yashaydiganlar va umrlarni shular bilan o‘lchaydiganlarning mulki, ma’naviy-ruhiy xaloskor so‘zi, umr dovonlarida eng mustahkam tayanch”.

Qur’oni Karim jahon xalqlarining ko‘pgina tillariga o‘girilgan. Shuningdek, o‘zbek tilida ham bir necha tarjima va tafsirlar yozilgan.

Qur’onning dunyodagi ko‘plab turli tillarga tarjima qilinishi buyuk madaniy-ma’rifiy hodisadir. Qur’oni Karim jahonning 250 dan ortiq tillariga ko‘p marotaba takror-takror tarjima qilingan. Jumladan, ingliz tilida 120 ga yaqin, fransuz tilida 120 dan ortiq tarjimalari mavjud. Shuningdek, rus tilida 20 dan ortiq, lotin, ispan, nemis va boshqa tillarda ham ko‘plab tarjimalari bor. Bu tarjimalarning ba’zilari ma’lum tilda gaplashadigan musulmonlar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, ba’zilari esa musulmon bo‘lmagan sharqshunos mutaxassislar va keng o‘quvchilar ommasi uchun chop etilgan. Ba’zi tarjimalar qiziqish va o‘rganib ko‘rish natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, ayrimlari do‘stona maqsadda – samimiyona chuqur islomiy e’tiqod natijasida yuzaga kelgan. Sir emas, ba’zi tarjimalar muqaddas Qur’oni Karimni qoralash, ya’ni dushmanlik maqsadida ham amalga oshirilgan.

Muqaddas Kalomning turkiy tillarga, jumladan, turk, tatar, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, turkman hamda fors tillarida ham ko‘plab tarjimalari borligi ma’lum. Qur’oni Karimni umuman turkiy tillardagi tarjima va tafsirlari adadi ikki yuzdan oshib ketadi.

2004-yilda O‘zbekistonda Qur’oni Karim ko‘zi ojizlar uchun bo‘rtma harflarda, ya’ni brayl yozuvida – alohida kirish kitobi bilan chop etildi. Bu nashr yuqori sifati, betakror ko‘rinishi bilan o‘quvchiga hayrat bag‘ishlaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, dunyoda Qur’oni Karimning braylcha shakli Misr Arab Respublikasi va Tunis davlatlaridan so‘ng uchinchi bo‘lib nashr etildi.

QUR’ONI KARIM O‘ZBEK TILIDA

Turkiy o‘zbek tilida ham, tafsirlar bilan qo‘shganda, Qur’oni Karimni 10 dan ortiq izohli va sharhli, tafsirli va ma’nolari tarjimalari bor. Lekin bizning hisobimizcha, sof to‘liq tarjima sifatida shu mahalgacha Qur’onning 6 ta to‘liq tarjimasi bo‘lib, bular jumlasiga quyidagilar kiradi.

1. Sayyid Mahmud Toroziy – Oltinxon To‘ra tarjimasi (1994);

2. Shayx Hoji Muhammadjon Mavlaviy Hindistoniy-Qo‘qandiy tarjimasi – “Bayonul Furqon fi tarjimatul Qur’on”;

3. Shayx Alouddin Mansur tarjimasi – “Qur’oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima”;

4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasi – “Tafsiri hilol” (1991);

5. Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasi – “Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri” (2001);

6. Shayx Usmonxon Alimov qalamiga mansub – “Tafsiri irfon” tarjimasi.

Qur’oni Karim ma’nolarining ilk turkiy (eski o‘zbek tilidagi) tarjimasi 1956-yilda Saudiya Arabistonidagi vatandoshimiz Oltinxon To‘ra tomonidan, zamonaviy o‘zbek tilidagi birinchi tarjimasi esa Alouddin Mansur tomonidan amalga oshirildi. Bu tarjima O‘zbekiston ma’naviy-ma’rifiy hayotida katta voqea bo‘ldi. Avval “Sharq yulduzi” jurnalining 1992-1993-yillardagi sonlarida, keyinchalik “Cho‘lpon” va G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotlarda millionlab nusxada chop etildi.

Shuningdek, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Hilol” tafsiri va alohida ma’nolar tarjimasi yurtdoshlarimizga Qur’oni Karimni o‘zbek tilida yetkazishda ulkan voqea bo‘ldi. Tafsir va ma’nolar tarjimasi shundan keyin ham bir necha bor qayta-qayta nashrdan chiqarildi va hamon musulmonlarning bu asarlarga ehtiyojlari susaymayotir.

Shayx Abdulaziz Mansurning “Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri”ning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

● U hanafiy mazhabiga mansub mashhur mufassirlarning tafsir kitoblariga asoslangan holda tayyorlangan. Boshqa mazhablarga doir tafsiflardan ham kerakli joylarda foydalanilgan. Fiqhiy masalalar bo‘yicha to‘rt mazhab o‘rtasidagi farqlar imkon qadar qayd etib borilgan.

● Oyatlarning tarjimasida arabcha matn ma’nosi imkoni boricha so‘zma-so‘z ifoda etilgan. Qo‘shimcha yordamchi so‘z va izohlar qavs ichida berilgan.

● Tafsir kitoblar va boshqa foydalanilgan manbalarning nomlari iqtiboslardan keyin qisqartma shaklda ramziy harflar bilan berilgan.

● O‘quvchilarning foydalanishicha qulaylik yaratish maqsadida tarjima va tafsirlar Qur’oni Karimning arabcha matni bilan bir sahifada yonma-yon berilgan.

● Tarjimon amalda bo‘lib kelgan yozuv qoidalariga rioya qilgan. Ya’ni 1990-yillardan boshlab, asosan, diniy adabiyotlarda o‘zgara boshlagan o‘zbek yozuvi imlolarini qayta tiklagan.

Shayx Usmonxon Alimovning “Tafsiri irfon” tarjimasida har bir sura avvalida sura nomining izohi va unda yoritiladigan mavzular haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Oyatning arabcha matni ostiga uning o‘zbekcha o‘girmasi yo‘g‘on harflarda berilib, keyin tafsirga o‘tilgan. Oyatlar ko‘p o‘rinlarda boshqa oyatlar mazmuni bilan tafsir qilingan. Keltirilgan ma’lumotlarning manbalari ko‘rsatilgan va mo‘tabar asarlardan olingan. Suraning fazilati haqida kelgan xabarlar bo‘lsa, sura so‘ngida ilova qilingan.

Bundan tashqari, domla Mahbubiy-Marg‘iloniy, Shamsiddin Boboxonov, Ismatilla Abdullayev va boshqalarning fidoyi tarjima faoliyatlari urinishlari mahsuli ham o‘quvchilarga yetib bordi.

Islomshunos olim Mutallib Usmon (professor M.A.Usmonov) boshchiligidagi olim-sharqshunoslar (U.Uvatov, A.Idrisov, I.Abdullayev) tarjimonlar guruhi tomonidan “Qur’oni Karim: tarjima va ilmiy tarixiy izohlar” nomi bilan qilingan tarjima to‘liq chop etilmagani va keng kitobxonlar ommasiga yetib bormagani bois uni alohida zikr qilmadik. Shuningdek, oldingi davrlarda qilingan turkiy tarjima va tafsirlar keng xalq ommasiga ma’lum bo‘lmagani sababli, ularni ham alohida eslatib o‘tmadik. Biz faqat xalq istifodasiga havola etilgan tarjimalarni nazarda tutyapmiz, xolos.

Shuni alohida qayd etish zarurki, Qur’onning turli tarjimalari bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to‘ldiradigan tarzda amalga oshirilgan. Barcha tarjimalarning umumiy xususiyati sodda va tushunarli zamonaviy o‘zbek tilida yangraganligidir. Bir so‘z bilan aytganda, har bir yangi tarjima e’tiroz natijasi emas, balki hayotiy ehtiyoj natijasidir. Shu bilan birga, hech bir tarjimon Alloh taoloning mo‘jiza Kalomini mukammal tarjima qildim, deya olmaydi, hech kim bu da’voni aslo qila olmaydi ham. “Albatta, tarjima har qancha mukammal bo‘lmasin, hech qachon asliyatning o‘rnini bosolmaydi. Tarjima asliyatga tenglasholmaydi”, deb ta’kidlaydi Ibrohim G‘afurov.

“ANVORUL-QUR’ON: “FAYZUL-FURQON” TARJIMASI VA XUSUSIYATLARI

Nazarimizda, “Anvorul-Qur’on: “Fayzul-Furqon” o‘zbek tilidagi yettinchi to‘liq tarjimadir. “Fayzul-Furqon” tarjimasi nashriga ancha oldin, ya’ni chorak asr ilgari ruxsat berilgan bo‘lsa-da, mohir tarjimon Mirzo Kenjabek tarjimani yanada takomillashtirish maqsadida uni ko‘p nusxada chop etishga shoshilmagan. Tarjimonning yozishicha, ushbu tarjima 2009-yil 19-mart kuni nihoyasiga yetgan, so‘nggi tahriri esa 2021-yil 6-aprelda tugallangan.

Endi savol tug‘iladiki, Qur’oni Karim ma’nolarining yettinchi izohli tarjimasi “Anvorul-Qur’on: “Fayzul-Furqon” qaysi jihatlari bilan oldingi tarjimalardan farqlanadi? Uning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat? Ushbu savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Ma’naviy-madaniy, ilmiy-ma’rifiy va diniy-e’tiqodiy sohada har bir davrning o‘z talablari bo‘ladi. Mazkur tarjima 2005-yil juda oz nusxada chop etilgan bo‘lsa-da, yangi davrdagi yangicha talablarga muvofiq, yangidan nashrga tayyorlandi.

Ilm ahllariga va butun xalqimizga ma’lumki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir necha marotaba Qur’oni Karim ma’nolarini xalqimizga to‘g‘ri yetkazish, uning ma’no tafsirlariga e’tibor qaratish zarurligini alohida ta’kidlaganlar. Buning ustiga, “Yangi O‘zbekiston” va “Yangi Uyg‘onish davri” – “Uchinchi Renessans” degan ibora va shiorlar bilan dadil qadam tashlamoqda hamda olimlarimizdan yangicha kuch-g‘ayrat va jonli ilmiy-ma’rifiy faoliyatni talab etmoqda. Mazkur yangi tarjima ana shu hayotiy talablarga munosib va muvofiq bir fidoyi faoliyat namunasidir.

Tarjimon Mirzo Kenjabek Qur’oni Karimni tarjima qilish an’anasini davom ettirishdek, murakkab ishni o‘z zimmasiga olib, unga mas’uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashgan, o‘zining bor dunyoviy va diniy bilim, boy va ko‘p yillik tarjimonlik tajribalarini bu xayrli ishga to‘la safarbar etgan.

“Anvorul-Qur’on: “Fayzul-Furqon”ning Mirzo Kenjabek tarjimasidagi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Birinchi xususiyati shuki, u tafsir sifatida emas, balki izohli tarjima sifatida amalga oshirilgan. Ko‘plab oyatlarga berilgan qisqa izohlar esa o‘quvchiga yordam bo‘lishi, muayyan oyatlarni hayotga tatbiq etishda osonlik tug‘dirishi uchun taqdim etilgan.

Ikkinchi xususiyati. Tarjimon o‘zbek tilidagi barcha mavjud tarjima va tafsirlardan foydalangan holda, mazkur tarjimada ularning eng yaxshi jihatlarini jamlashga harakat qilgan. Bu gap ko‘proq tarjimaning til xususiyatlari va so‘z boyligiga ham tegishlidir.

Uchinchi xususiyati. Izohlar va qavs orasida berilgan qo‘shimcha ma’no va ta’villar Ahli sunnat val-jamoat yo‘lining eng sahih va ishonchli tafsirlariga asoslangan. Bu xususiyatni quyidagi misol bilan ko‘rsatish mumkin.

Ilm ahllariga ma’lum, Qur’oni Karimda “muhkam oyatlar” va “mutashobih oyatlar” degan iboralar bor. Alloh taolo Qur’oni Karimni Oli Imron surasining 7-oyatida quyidagi ma’noda aytadi:

“(Ey Rasulim!) Sizga Kitobni (Qur’onni) nozil qilgan Zot Udir. U (Qur’on)ning bir qismi muhkam (ochiq va aniq) oyatlardirki, ular Kitobning onasi (asli-tamali)dir; bir qismi esa mutashobih (ma’nosi maxfiy) oyatlardir. Bas, qalblarida egrilik bo‘lganlar fitna chiqarishni va (o‘z havoyi nafslariga ko‘ra) ta’vil qilishni istab, undan mutashobih bo‘lganlariga ergashurlar. Holbuki, uning ta’vilini faqat Alloh bilur. Ilmda komillik topganlar esa: “Unga iymon keltirdik, hammasi Rabbimiz huzuridandir”, derlar. (Buni) aqli salim egalaridan boshqasi fikrlay olmas”.

Mutashobih – lug‘atda “bir-biriga o‘xshagan” demakdir. Istiloh (atama) sifatida esa ma’nosi bittadan ortiq bo‘lib, zohir (tashqi) ma’nosi bilan to‘liq anglashilmaydigan va haqiqiy ma’nosi Allohga havola etiladigan kalima va ifodalar yoki ko‘p ma’noda kelish ehtimoli bo‘lib, ulardan birini tarjih etib tanlashda qiyinchilik tug‘iladigan ifodalardir. Bular “Alif. Lom. Mim”, “To. Ho” kabi hurufi muqatta’lar – ma’nodan uzilgan ifodalar, Allohning “qo‘li”, “yuzi”, “changali”, “jannat” va “Arsh” kabi ifodalar va “Basir va Qodir” kabi sifatlardir. Faqat keyingi olimlar bid’at ahlidan bo‘lgan mazhablarga javob qaytarish uchun bulardan zarur deb topilganlariga Islomning ruhiga va ta’vil shartlariga muvofiq holda ma’no berganlar.

To‘rtinchi xususiyati. “Anvorul-Qur’on: “Fayzul-Furqon” kitobida so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin bo‘lmagan, ma’nosi berk mutashobih oyatlar eng mo‘tabar va ishonchli tafsirlar hamda Aqidaga oid kitoblarda berilgan ta’villar asosida ma’nolari jihatidan tarjima qilingan va har bir mutashobih oyatga alohida izohlar havola etilgan. Shuningdek, oldingi tarjimalarda uchragan ba’zi noaniq ifodalar bu kitobda baholi qudrat tuzatib o‘tilgan.

Beshinchi xususiyati. Aqida masalalariga tegishli bo‘lgan oyat va iboralar qat’iyan Ahli sunnat val-jamoat aqidasiga mos talablar asosida, turli ixtilof va tortishuvlarga o‘rin qoldirmaydigan darajada tarjima qilingan va tayanilgan manbalar izohda yoki qavs ichida ilova etilgan. Ma’lumki, ayrim fiqhiy masalalar sunniylikning to‘rt mazhabida turlicha hal etilgan bo‘lishi mumkin. Mazkur tarjimada ibodatlar, meros, nikoh, taloq kabi barcha fiqhiy masalalarda, hamma ahkom oyatlari tarjimasida Hanafiy fiqhiga tayanib ish tutilgan.

Oltinchi xususiyati. Kitobxonlar oyatlar ma’nosini to‘g‘ri va to‘liq tushunishlari uchun deyarli har bir oyat tarjimasida qavslar ochilib, qo‘shimcha ma’nolari bayon qilingan. Oyatlar ma’nosi qo‘shimcha izohlar bilan bayon etilganda imkon qadar qisqalikka intilingan. Zarurat sezilganda, bir qancha oyatlarning sharh va izohlari matn ostida kichik harflarda bayon etilgan.

Yettinchi xususiyati. Qur’oni Karimning o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan ba’zi istilohlari asl Qur’oniy shakli saqlangani holda, qaysi o‘rinda qaysi ma’noda kelgani qavs ichida izohlab o‘tilgan. Bunday tushuntirishlar keng xalq ommasi uchun, ayniqsa, yoshlar uchun foydali va juda zarurdir.

Yurtimizda Qur’oni Karim ma’nolarini anglash va uni to‘g‘ri anglatish yo‘lida olib borilayotgan xayrli ishlar, tafsir va ishonchli tarjimalarning ortib borayotgani e’tiborga loyiq. Mazkur Mirzo Kenjabek tarjimasi ham ana shu yo‘ldagi ilmiy-ma’rifiy faoliyatning xayrli va savobli bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bunda tarjimaga “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish!” shiori asos qilib olingani bejiz qayd etilmagan.

Shu o‘rinda tarjimon Mirzo Kenjabek haqida muxtasar ma’lumot berib o‘tishni lozim topdik.

Otashin shoir va mohir adib, zukko tarjimon va qalami o‘tkir publitsist Mirzo Kenjabek (Kenjaboyev Mirza To‘ychiyevich) 1956-yilda Surxondaryo viloyatida tavallud topgan. Hozirda O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazida faoliyat olib bormoqda.

So‘nggi chorak asrdan buyon ijodkor asosan tarixiy-ma’rifiy, tasavvufiy, adabiy-irfoniy va fiqhiy mavzularda qalam tebratib kelmoqda.

Uning “Termiz tazkirasi” (2001), “Buyuk Termiziylar” (2017), “Hazrati Qusam ibn Abbos – Shohi Zinda” (2017), “Bobur Mirzo asarlarida arabiy matnlar” (2018) kabi tazkira va risolalari, “Dunyoning murshidi” (2004), “Risolai volidiyya nazmiy tarjimasi va sharhi” (2019), “Oshiq Mashrab va tasavvuf olami” (2019), “Yoshlarga dil so‘zlarim” (2021) kabi tasavvufiy va adabiy kitoblari xalqimizga manzur bo‘lgan.

Mutasavvuf ijodkor Mirzo Ahmad Xushnazar taxallusi bilan “E’tikof” (2005), “Qabriston ziyorati odobi” (2005), “Mubayyan va nasriy bayoni” (2014), “Anvorul-manosik” (2014), “Eng go‘zal salovotlar” (2015) singari fiqhiy-ma’rifiy kitoblarni ham kitobxonlarga armug‘on etgan.

Mirzo Kenjabek tarjima sohasida ham nihoyatda barakali ijod qilib kelmoqda. U mohir mutarjim sifatida:

fors tilidan Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” tazkirasini (1997), Zayniddin Vosifiyning “Toshkent ta’rifida masnaviy” dostonini (2002), Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy, Nosir Xusrav Dehlaviy, Mavlaviy Jununiy g‘azallarini; arab tilidan Sirojiddin Usmon O‘shiyning “Omoliy” (1999) manzumasini o‘zbek tiliga yuksak saviyada tarjima qilgan.

Shuningdek, Abu Iyso Muhammad at-Termiziyning “Sunani Termiziy”, “Ash-Shamoili al-Muhammadiyya”, Muhammad Zohid Qo‘tqu ibn Ibrohim al-Bursaviyning “Ahli sunnat val-jamoat aqoidi”, Shayx Mavlono Ahmad Ziyouddin Kumushxonaviyning “Jomi’ ul-mutun”, Abul-Futuh Shayx Ahmad G‘azzoliyning “Bahrul mahabba”, Mahmud As’ad Jo‘shonning “Haqiqiy sevgi”, “Tasavvuf va go‘zallik”, “Murshidi komil hikmatlari”, Qutbiddin Iznikiyning “Murshidi mutaahhiliyn”, Hoji Ahmadjon Maxdum Hanafiy-Naqshbandiyning “Risolai sujudi sahv” kabi ilmiy-ma’rifiy va hadis kitoblari Mirzo Kenjabekning sa’y-harakatlari bilan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, xalqimizga taqdim etildi.

Ushbu Mirzo Kenjabekning tarjimasi Islom ma’rifatiga oshno xalqimizni, ayniqsa, o‘zini ilm yo‘liga baxshida etgan ziyo ahllarini juda ham mamnun etadi!

Qur’oni Karimning o‘zbek tilidagi navbatdagi tarjimasi xalqimiz uchun muborak bo‘lsin.

Mazkur tarjima Mirzo Kenjabek tomonidan amalga oshirilgan eng muhim va katta ilmiy fidoyilik natijasidir.

Xulosa shuki, Qur’oni Karimning yangi-yangi qirralarini o‘rganish, uni yangidan kashf etish davom etaveradi. Yangi O‘zbekistonda bu jarayon yanada faollashib borishi tabiiy. Avvalgi xato va kamchiliklarni takrorlamagan holda tobora sifatli tarjima va tafsirlarni ta’lif etish yangi asr ulamolarining sharafli va mas’uliyatli vazifalaridan biri. Boshqacha aytganda, bu muqaddas va ulug‘ Kitob bilimdon ulamolar tomonidan ko‘p marta, qayta-qayta tarjima va tafsir qilinadi hamda bo‘lajak har bir tafsir o‘z xususiyati, fazilati va salohiyati bilan o‘quvchilarga Alloh taoloning so‘zini yanada yaxshiroq tanishlariga hamda uni chuqurroq tushunishlariga xizmat qiladi.

Alloh taolodan muqaddas Qur’oni Karimning ushbu Mirzo Kenjabekning tarjimasi – “Anvorul-Qur’on: “Fayzul-Furqon” yurtimiz mo‘min-musulmonlari uchun, dunyodagi barcha o‘zbekzabon kitobxonlar uchun xayrli, barakotli, muborak aylashini tilab qolamiz!

Qulf ursin mangulik hayotning guli



Muhammad ALI,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi,
Davlat mukofoti laureati

SOZ

Shoirlarda har xil holat bo‘lar namoyon,
Ular gohi toshqin soyday quyilajaklar.
Gohi esa dardlarini etguncha bayon,
Tuyg‘ulari selgib-selgib tiyilajaklar,
Tiyilajaklar.

Xira tortib qoldim-u yo olam ranglari,
Soxtaroqdek saslanurmi bulbul aytgan roz,
Bilib bo‘lmas... Shoir o‘zin qiynagan sari
Na quyilar, natiyilar qo‘lidagi soz,
Qo‘lidagi soz...

O‘ylab ketar arazlarga borgan yorini,
Achchiq-tirsiq, gina-kudrat, noo‘rin zarda
Izg‘irinday junjiktirar dil gulzorini,
Azob chekar qalb ming turli ishtibohlarda,
Ishtibohlarda...

“Muhabbatning umri boqiy! – deb qo‘yadi u, –
Mish-mishlardan yuksakroqdir sevgi degan his!”
Shirin deydi, Zuhro deydi, u mangu tuyg‘u
Yuragiga to‘lqin-to‘lqin solar nurli iz,
Solar nurli iz!

O‘ylab ketar harbiy xizmat quchog‘idagi
Burchin ado etib yurgan ukasin shu on.
Yalang davron emas axir qishlog‘idagi,
Oti bilan xizmat derlar, batartib doston,
Batartib doston!

Vatan burchi mard o‘g‘longa mardona sharaf,
Umidini senga tikmish bu Ona o‘lka!
Buyuk xalqning avlodisan, bas, shunga qarab
Buyuk Vatan xizmatini o‘tagin, uka!
O‘tagin, uka!

O‘ylab ketar mash’um Qo‘qon fojiasini,
Qizil qonga botirilgan inson huquqin,
Erkning sinmas, so‘ndirilmas sayroq sasini,
Odamzotni lol etguvchi jadidlar ruhin,
Jadidlar ruhin!

Nelar uchun jon chekdingiz, aziz bobolar,
Ne naf, sarflab o‘z pulingiz maktab ochmoqdan?
Ha, Siz Millat deb etdingiz o‘zni fidolar,
Baxt topdingiz shaksiz ilm nurin sochmoqdan!
Nurin sochmoqdan!

Yuraklarga qadalganda zahri qotil o‘q,
Marsiyaga bormadi hech qalam tutgan qo‘l!
Jadid yo‘li erk yo‘lidir, unga o‘lim yo‘q,
Bu millatni olg‘a eltar shon-sharafli yo‘l!
Shon-sharafli yo‘l!

Mana, Yangi O‘zbekiston bog‘i – nurafshon!
Humo qushi... Buyuk zotlar... Gullar tutingiz!
Ta’zim ila, g‘ururdan mast, ko‘ngilda tug‘yon
Ulug‘larga bir-bir salom aylab o‘tingiz!
Aylab o‘tingiz!..

Hayhot!.. Oppoq qog‘oz uzra oqa boshlar she’r,
Kuydirguvsi, yondirguvsi ne nurli xayol,
O‘t ila suv, tuproq, havo, Osmon ila Yer,
Orzu-armon, qahr-u g‘azab, o‘tmish, istiqbol...
O‘tmish, istiqbol...

Birdan tiniq torta boshlar olam ranglari,
Sehrlardan tovlanadi bulbul aytgan roz.
Shoir hayron... O‘z-o‘zidan afsun singari
Ilhom oqar, selday oqar... Jaranglaydi soz,
Jaranglaydi soz!

EY ZAMIN, YOLG‘IZIM

Dunyo xaritasin chulg‘ar xayolim:
Olam mehvarini tutmish G‘arb-u Sharq.
Ikki yarimsharni koptok misoli
Kimdir urishtirmoq orzusida g‘arq...

Oh, oh, oq kabutar momiq qanotin
Moviy havolarga nozik yozadi.
Raketa, dronlar sirli va botin
Qop-qora fazoda qabr qazadi!

Samovot qa’rida ming bitta falak,
Aqlni lol etar g‘ayri olamlar...
Bu g‘ayri olamlar ichra jonhalak
Ushoqdek Zamin bor, biling, odamlar!

Siz bilgan, biz bilgan olamtob Oftob
Koinot qo‘ynida kichik bir yulduz.
Siz-u biz sig‘ingan Zamin ham hisob
Bor-yo‘g‘i bir siqim tuproq degan so‘z!

Bir hovuch kul bo‘lib to‘zg‘iysan nahot
Dunyoda yolg‘izim, ey ona Zamin?
Do‘zaxga aylansa bu gardun, hayhot,
Kim unga kuyar-u kim chekar g‘amin?..

Zamin ona yanglig‘ tanho dunyoda,
Onadek mehribon, mag‘rur-u munglug‘,
Tubsiz-u besarhad boqiy samoda
Farzandidan o‘zga bir ilinji yo‘q.

Agarkim, bir gulni sindirsa shamol,
Barglarin to‘zg‘itsa turfa tomonga,
Dilbandim deydi-yu dilida malol,
Hasrati sig‘maydi yorug‘ jahonga!

Kim ko‘z-ko‘z aylagan kuch-qudratini,
Kim Yerga qo‘l sunmoq aylaydi xohish?
Betavfiq Gerostrat shon-shuhratini –
Istab qolgan kim ul, qay fe’li noxush?

Bilsun: qora qolur tarix qatida
Noshud farzandlarning tavqi-la’nati,
Onani o‘ldirib, qabri ustida
“Evoh!”, deb yig‘lagan o‘g‘il qismati!

Dunyo xaritasi notinch, beqaror...
Olam mehvarini tutmish G‘arb-u Sharq...
Ey Zamin, yolg‘izim, axir Xudo bor,
O‘zi asrar shaksiz, O‘zi! Analhaq!

“Sohibqiron” kitobidan

1. AMIR TEMUR VATANI

O‘ziga jahonni tamom qaratdi,
Dovruqli shaharlar ayladi barpo.
Bog‘lari dunyoga bo‘ylar taratdi,
Hech biriga nomin qo‘ymadi ammo.
Yasama maqtovga muhtojmas zinhor,
Ismin o‘zi shondan, shuhratdan baland.
Axir nomidaydi ulug‘ bir diyor...
Aziz nomidaydi bus-butun Vatan!

2. QUR’A MO‘JIZASI

Yetti yillik safar oldinda kutar...
Qo‘shin titratadi olam-zaminni.
Malikalar ko‘nglin bezovta etar:
“Kimni olib ketar Temurbek, kimni?..”

Adolat Temurbek hashmatiga zeb,
Ha, ha, adolatni ul tutar mahkam!
Xonimlar ko‘nglini avaylayin deb,
Qur’a tashlab tanlar safardoshin ham.

Xontaxtada naqshin to‘rt quticha jam,
Faqat bittasida bor tilla uzuk...
O, taqdir, qay yorga aylarkin karam,
Qay baxtli toparkin, qay ko‘zi suzuk?

Go‘zal Bibixonim boqadi mag‘rur,
Uning nigohida salobat, viqor,
Balqir Tuman oqa, Cho‘lpon Mulkday hur…
Bu yoqda o‘n sakkiz yoshli To‘kal bor...

Go‘zallar... Ko‘z emas, qora chashmalar,
Har biri umidvor, safarga rozi –
Qarashlarda chaqnar sir, karashmalar,
Sehrlarning sehri, nozlarning nozi...

Mana, qo‘l uzatar Saroymulkxonim...
U shaksiz topdim, deb ko‘ngli to‘q edi.
Qutichani ochib, tinib qolar jim...
Qutichada tilla uzuk yo‘q edi…

So‘ngra navbat yetdi Tuman oqaga,
Cho‘lpon Mulk oqaga… Taqdir, ajabo,
(Hayronlikdan qo‘ling borar yoqaga!)
Hech kimga uzukni ko‘rmadi ravo!..

Kenja malikani tole siyladi,
Uzuk taqqan qo‘li sochar edi nur.
Temurbek ichida mamnun o‘yladi:
“O‘zim ham kenjasin tilovdim, shukr!..”

DO‘STIM BOR

Bir marta ko‘rishdik,
Bir ko‘rgan – tanish.
Begona “tanish” deb
O‘rtanish, yonish.

Ikki bor ko‘rishdik,
Bu endi ayni,
Tanishdan yaqinroq,
Ya’ni – “og‘ayni”.

Yana bir uchrashib
Qoldik aroda...
Endi og‘aynimas,
Bizlar – “Birodar”!

To‘rtinchi galda-chi,
Vaqtimiz ham chog‘.
Quchoq ochib keldi:
“O‘rtoq, – deb – O‘rtoq!”

Menga-chi, do‘st kerak...
Do‘st kerak menga!
Shunda oson bo‘lur
Ona Yer, senga!..

Do‘stim bor, do‘st bilan
Baxtiyordurman.
Do‘stim bor, jahonda
Men ham bordurman!

SHOIR VA OLIM

Shoir mehmon bo‘ldi olimga bir kun,
Olimni she’rlardan bahramand etdi.
Olim gerbisidni ta’riflab butun:
“Ilmiy mujdalarning so‘ngisi!” – dedi...

Fermer dalasiga borib ko‘rsalar...
Shoir hayratlardan yoqa tutdi lol!
Gerbisid sepilgan yerda g‘o‘zalar
Yashnarli qo‘l bilan terilgan misol!

O‘zgacha manzara qo‘shni paykalda,
Chirmovuq, o‘t bosgan g‘o‘zani butkul.
Bu yerga gerbisid sepilmagan-da,
Begona o‘tlarga ochiq edi yo‘l...

Bundayin to hanuz ko‘rmagan xilqat,
Gerbisid hikmati shundayin sodda:
G‘o‘zalar ustiga sepsangiz, faqat –
Begona o‘tlarni quritar satta.

Noyob mo‘jizaga tan bermoq-ku kam,
Ammoki talabim o‘zgacha bugun:
Odamlar qalbiga sepadigan ham
Biror modda o‘ylab chiqmaysiz nechun?

Kulmang, latifaga toqat yo‘q aslo!
Shunday modda bo‘lsin hayotday zarur:
Sepganda yashnasin orzu-havaslar,
Bitsin manmanlig-u kiboriy g‘urur!

Tinib tura olmas shiddatli zamon,
Bariga qodirdir inson idroki!
Ezgu xislatlarni qoldirib omon,
Badbin illatlarni yitirsin toki!

Pora balosi-yu xiyonat – ko‘pdir
Elni g‘orat aylab topganlar foyda –
Jamiyat bog‘ida begona o‘tdir,
Barin quritmakka “gerbisid” qayda?..

Badnafs, och poraxo‘r, misli ko‘mir ul,
Qorasi yuqadi, kuydirmasa ham.
Moddaning sehrli kuchidan butkul
Nopok tuyg‘ulardan arisin olam!

Fitna tuxumini el aro sochib,
Oqibat neligin unutgan nodon
Moddaning hayotbaxsh sehridan qochib,
Ketsin yiroqlarga, yurak-bag‘ri qon!

Ta’ma-yu xushomad yovdir beomon,
Badnom etguvsidir insonni oxir.
Shira – o‘simlikni etadi xazon,
Zang yeydi metinday temirni axir!

Nafratga nishondir qo‘rqoq shuuri,
Xatardir hamisha jur’atsiz ko‘ngil.
Qo‘rqoqning qalbida baxtga o‘rin yo‘q,
Bugun qo‘rqoq esa – erta xoin ul!

Hasadchi yurakni eta olsin sof,
Baxilning bog‘ini tubdan ko‘chirsin.
E’tiqodi yo‘qni, bas, aylab insof
Inson hisobidan mutloq o‘chirsin!

Noyob mo‘jizaga tan bermoq-ku – kam,
O‘zgacha talabim ayturman takror:
Odamlar qalbiga sepadigan ham
Shundoq shifo o‘ylab chiqmoqlik darkor!

Shunday shifo bo‘lsin hayotday zarur,
Toza ko‘ngillarga baxsh etsin ilhom.
Qabohat, razolat – barin bir umr
Ildizin quritsin, poklasin tamom!

Bas! Qaro dillarning kesilsin yo‘li,
Oppoq xayollarga to‘lsin bu samo.
Qulf ursin mangulik hayotning guli,
Bizga quchoq ochsin musaffo dunyo!

BAXT

Narigi sohilda yuribdi bir qiz,
Gilam do‘ppi uzra turmaklangan soch.
Suykalib kelar-u poyiga sassiz
To‘lqin olislarga otadi quloch.

Ayqirib oqadi toshqinli daryo,
Bosib ketmoqchiday butun Yer yuzin.
Nogahon ilg‘ayman to‘lqinlar aro
Qizning yongan qop-qora ko‘zin!

Bu – sen-ku, yo‘qotib qo‘ygan xayolim!
Qayig‘imni shartta daryoga burdim.
Ikkita eshkakni qilich misoli
Hissiz to‘lqinlarning qa’riga urdim!


Sen – o‘sha dunyoga bergisiz orzu,
Sen – omol, umrga toj bo‘lsang arzir!
Sen – erksan, sen – dilda farovon tuyg‘u,
Sen – ishqsan, sen – ohsan, sen – mangulik sir!

Birdan ro‘baro‘mda ko‘rindi girdob,
Qa’riga tortardi meni beayov.
Qo‘l silkib, holimga kuyinib shu tob
O‘tli ko‘zlariga yosh oldi darrov!

Bir tomchi ko‘z yoshi, bir bor xo‘rsiniq,
Bir bora orziqish, bir chimdim mehr!..
Oh, daryo musaffo, osmon ham tiniq,
Eh, qanday mo‘tabar, bu Zamin, bu Yer!

Boshimga baxt, kulfat kelgani onda
Bir tomchi ko‘z yoshing ko‘p ko‘rma, dildor!
Toki men maqtanay mag‘rur jahonga:
“Bebadal baxtim bor, do‘stlar,
baxtim bor!..”

QARDOSHLIK



“Olimga yondashsang, ochilar ko‘zing...”

Turkman xalqining mutafakkir shoiri Maxtumquli tavalludining 300 yillik yubileyiga bag‘ishlangan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik teatrida bo‘lib o‘tgan adabiy-ma’rifiy anjuman chinakamiga bayramona tus oldi. Shoirning hikmatlarga to‘la she’rlari, ibratli hayot yo‘li eslandi.

Darhaqiqat, shoirning betakror poetik tafakkuri va jahon she’riyati xazinasiga qo‘shgan hissasi G‘arb-u Sharqdagi eng dongdor shoirlar ulushidan aslo kam emas. Bu orif, donishmand shoir o‘z millati boshidagi toj va tojidagi marjon-marvariddir. Bu yil turkman xalqining faxri, ma’naviyatining oyinasi bo‘lgan Maxtumquli Firog‘iy tavalludiga 300 yil to‘ladi. Aslida bu betakror, alloma shoir faqatgina turkman xalqining emas, butun dunyo ahlining, jumladan, o‘zbek xalqining ham eng sevimli ijodkori sanaladi.

Maxtumquli she’rlari o‘ziga xos falsafasi, bebaqo dunyo tavsifi hamda o‘ziga xos rubobiy ohangi bilan har qanday inson qalbiga yo‘l topadi.

Quvonarlisi shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 19-fevral kuni “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” maxsus qarorga imzo qo‘ydi: “Maxtumquli asrlar mobaynida xalqimizning o‘z shoiriga aylangan. Uning she’rlari o‘zining teran falsafiy ma’nosi, xalqona ruhi, yuksak badiiyati bilan baxshi va hofizlarimiz, shoirlarimizga ilhom bag‘ishlab, hamisha davralarda yangrab, el-yurtimiz qalbida yashab keladi.

Maxtumqulining o‘z davrida Xivadagi mashhur Sher-g‘ozixon madrasasida tahsil olgani, Alisher Navoiydek buyuk so‘z san’atkorini o‘ziga ustoz deb bilgani xalqlarimiz o‘rtasidagi chinakam do‘stlikning ajoyib namunasidir.

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik hamda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari tarixida yangi davr boshlangan hozirgi paytda Maxtumquli Firog‘iyning o‘lmas badiiy merosi xalqlarimiz uchun yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda”. Tarixiy hujjatda juda muhim fikr-mulohazalar bor: darhaqiqat, ayni tarixiy qarorga ko‘ra O‘zbekistonda yil davomida ilm va ijod ahli, maktab o‘quvchilari va oliy o‘quv yurtlarining talabalari Maxtumqulining ibratli hayot yo‘liga, hikmatlar bilan yo‘g‘rilgan boy adabiy merosiga ko‘p va xo‘p murojaat qilishdi.

Maxtumquli yilida keng miqyosda xalqaro anjumanlar tashkil etildi. Nazarimda, bu donishmand shoir o‘z ijodiy merosi bilan yil davomida qon-qardoshlar qalbini bir-biriga yana ham mustahkam bog‘laydi; dildosh odamlarning o‘zaro diydoriga sababchi bo‘ladi. Shunday buyuk bir shoirning dunyoga kelishi nafaqat turkman yoki umumturkiy adabiyotining, balki dunyo adabiyotining ham baxt-u iqbolidir. Chunki turkman she’riyati, turkmanning bebaho so‘zi Maxtumquli vositasida dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan joy oladi; bepoyon ma’naviyat ummoniga borib qo‘shiladi. Maxtumquli – nosih shoir. Uning niyati ezgulik, yaxshilik va nasihatdir. O‘gitlari o‘rinli, ma’nili, mantiqli, umuminsoniy mohiyatga ega, albatta. Zotan, shoir quruq nasihatni yoqtirmaydi. Eng avval, inson o‘z so‘ziga o‘zi amal qilmog‘i lozim:

Garchi nasihatdir ellarga so‘zing,
El olmasdan avval amal qil o‘zing,
Olimga yondashsang, ochilar ko‘zing,
Johilga yondashsang ko‘rdek bo‘larsan.

Olim bilan johil – ko‘zi ochiq odam va ko‘r. Maxtumquli she’rlarining fikr oqimida bunday tazodli va ta’sirli misralar juda ko‘pchilikni tashkil etadi.

Maxtumquli o‘z she’rlarida har qanday insonga xos eng ulug‘ fazilatlarni, yaxshi so‘zni yuksak martabada tarannum etadi. Shoir ta’biricha, inson yaxshi so‘z so‘zlashi lozim va agar bilmasa, jim o‘tirgani afzal. Do‘stning yaxshi so‘zi haqida: “Yaxshi do‘st bir so‘z desa, jon kabi aziz bo‘lar”, deydi shoir. “Aqling bo‘lsa, yaxshilarga hamdam bo‘l”. Juda zarur o‘git bu. Yaxshi inson, yaxshi do‘st, yaxshi qo‘shni, ya’ni bunday odamlarning niyati yaxshilik bo‘ladi va “ko‘ngilda gina oz bo‘ladi”. Saxovatpesha, mardona qalb egalari hamisha hurmat-izzatga munosib ekanini qayta va qayta uqtiradi shoir. Uning fikricha, inson o‘ziga, axloqiga, ruhiy borlig‘iga e’tiborli va o‘z aytar so‘ziga ehtiyot bo‘lmog‘i lozim.

Maxtumquli – orif shoir. O‘qigan kitoblarini, she’rlarida tilga olingan sharq allomalarining kimligini yaxshi tanib olish uchun ham juda katta bilim zahirasi kerak bo‘ladi. “Orif bo‘lsang, so‘z ma’nosin ocharsan”. Johillik ziddi bo‘lgan oriflik – ulug‘ martaba. Chinakam ilm-ma’rifat ahli – oriflargina shoir so‘zining ma’nosini anglaydi.

Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz bilgan Maxtumquli badiiy so‘zining qudrati har qanday qilichdan keskir ekanini bildi. Yaxshi so‘z qadriga yetadigan dunyoning barcha hududlaridagi she’riyat muxlislari, jumladan, O‘zbekiston xalqi ham Maxtumqulini xuddi o‘z milliy shoiridek ardoqlaydi. Shoir o‘zini bir she’rida “so‘z odamiman”, deb ta’riflagan edi. Maxtumqulidek bashariyat qalbidan chuqur joy olgan ulug‘ shoir, ya’ni buyuk “so‘z odami”ning uch yuz yoshi – tavallud to‘yi barchaga muborak bo‘lsin.

Bahodir KARIM,
professor,
“Maxtumquli Firog‘iyning 300 yilligi”
medali sohibi

XUSHXABAR

Ma’lumki, Turkiy davlatlar tashkilotining 2021-yil 12-noyabrda Istanbul shahrida o‘tkazilgan VIII sammitida Prezidentimiz tashabbusi bilan ushbu tuzilma doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etilgan edi.

Turkiy xalqlar madaniyatini yanada rivojlantirish, ularning bebaho madaniy qadriyatlarini asrab-avaylash va ommalashtirish, iqtisodiyot, fan va ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm va boshqa sohalar rivojiga beqiyos hissa qo‘shayotgan shaxslar ana shu nufuzli mukofot bilan taqdirlanishi belgilab qo‘yilgan.



NOBEL SOVRINDORI
NAVOIY MUKOFOTIGA SAZOVOR BO‘LDI

E’tiborli jihati, ushbu xayrli tashabbus tez orada o‘zining natijasini berdi. 2022-yil 11-noyabrda Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdagi sammitida atoqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov o‘zining bebaho ijodiy merosi bilan turkiy dunyo birligiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun ilk bor Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlangani e’lon qilindi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovga mazkur mukofotni tantanali ravishda topshirdilar.

Yaqinda mazkur sovrinning yana bir sohibi e’lon qilindi. Qirg‘iz Respublikasining Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi yig‘ilishida turkiyalik mashhur kimyogar olim Aziz Sanjar Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotga loyiq deb topildi. Muhimi, Tashkilotga a’zo barcha davlatlar uning nomzodini yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlagan.

Aziz Sanjar 1946-yili Turkiyaning Mardin viloyatida tug‘ilgan. U Istanbul universitetining tibbiyot fakultetini, AQShning Texas universitetida molekulyar biologiya sohasida magistratura va doktorantura yo‘nalishlarini tamomlagan.

Bir necha yil Amerikadagi mashhur Yell universitetida ilmiy xodim vazifasida ishlagan. 1982-yildan buyon ushbu mamlakatning Shimoliy Karolina shtatidagi Chapel Hill universiteti professori lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda. Olim ko‘plab ilmiy ishlanmalar muallifi sanaladi. 2015-yili kimyo sohasidagi olamshumul ilmiy kashfiyoti uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Qardosh turk xalqi olimni behad e’zozlab, uning yutuqlari bilan faxrlanadi. Mardin shahri aeroportiga Aziz Sanjar nomi berilgani ham shundan dalolatdir.

Ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda Aziz Sanjar O‘zbekistondagi tegishli ilmiy muassasalar bilan doimiy hamkorlik qilib kelmoqda. U yurtimizda o‘tkazilayotgan xalqaro ilmiy-ma’rifiy anjumanlarda faol ishtirok etish bilan birga, bir qator universitetlarda talabalarga qiziqarli ma’ruzalar o‘qimoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, turkiyalik atoqli kimyogar olim Aziz Sanjarning ilmiy faoliyati yana bir yuksak darajada e’tirof etilib, u Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlangani haqidagi xushxabar O‘zbekistonda ham katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

Fursatdan foydalanib, taniqli olimni chin dildan qutlab, uning kelgusi faoliyatiga ham muvaffaqiyatlar tilaymiz.

TAHRIRIYAT

DONOLAR HIKMATI

SO‘KONG‘ICHNING DUOSI

Inson shuuriga muhrlanib qoladigan hikmatlar, juda oddiy va ayni chog‘da, hayotiy, ibratli misollar umrboqiy kitoblarni bezaydi. O‘quvchiga ma’naviy ozuqa beradi, ruhini yuksaltiradi; tozalikka undaydi. Alisher Navoiy asarlarini o‘qigan odam yangidan-yangi ma’nolar xazinasiga yo‘liqib shodlanadi. Barchaga ma’lumki, shoir “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ko‘plab ulug‘ zotlarni zikr etadi. Ularning hayot tarzi, noyob insoniy fazilatlari, dunyoqarashi xususida qisqa, ammo juda nodir ma’lumotlarni keltiradi. O‘rni kelganda o‘sha ulug‘ zotlarning hikmatlarini eslab o‘tadi.

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da juda ibratli hikoyat va rivoyatlarni, o‘ziga xos “xoriqul odat” zotlarning karomatlarini qalamga oladi. Bir o‘rinda Bobo Piriy degan devonatabiat kishini eslaydi. Uning jazbalari haddan tashqari kuchli bo‘lib, ko‘p hollarda u borliqni unutib, tegrasidagi voqea-hodisalarni nazariga ilmaydi. Bu zotning g‘alati bir odati bor: odamlarni juda yomon, axloqsiz so‘zlar bilan haqoratlaydi. Shu sabab xaloyiq undan o‘zini uzoq tutadi.

Alisher Navoiy ham Bobo Piriy maskaniga yaqin kelganda, yo‘nalishini boshqa ko‘chaga burib, garchand biroz uzoqroq bo‘lsa ham, o‘z manziliga aylanma yo‘l orqali ketadi. Bu holatni bir necha bor kuzatgan topqir hamrohi Navoiydan: “Hazrat, har doim Bobo Piriyning manziliga yetganda yo‘lni boshqa tomonga burib ketasiz. Boboning oldidan o‘tmaysiz, buning sababi nima?” deb so‘raydi. Shunda Navoiy: “Bobo Piriy juda adabsiz so‘zlar bilan odamlarni so‘kadi, haqoratlaydi, menga shu qilig‘i xush kelmaydi. Uning fahsh so‘zlarini eshitishni istamaganim uchun yo‘lni boshqa tomonga buraman”, deydi. Shunda hamrohi: “Aytishlariga qaraganda, Boboning karomati bor emish. Yoniga bir o‘tib ko‘raylik, agar pirligi rost bo‘lsa, sizga beadablik qilmagay”, deb Navoiyni imtihon yo‘liga boshlaydi.


Alhosil, bir kuni Navoiy Bobo Piriyning oldidan o‘ta boshlaydi. Buni qarangki, Hazrat Alisher Navoiyni ko‘rgan Bobo Piriy birorta beadab so‘z aytmaydi. Nigohlar uchrashadi va bir lahzalik sukutli suhbat sodir bo‘ladi. Bobo ko‘ngil ko‘zi bilan toza iymon daryosining mavjlarini ko‘radi. Kundalik odatiga teskari o‘laroq uning qo‘li ko‘ksida, tavoze va nim tabassum bilan Alisher Navoiy haqiga duolar qilib qoladi...

Bu voqea kishini tafakkur qilishga undaydi. Alisher Navoiydek ulug‘ shoir qalbini, ma’naviy olamini birvarakayiga hammani bo‘ralab so‘kadigan Bobo Piriy his qiladi. So‘kong‘ich tili hazrat Navoiy qoshida duoga mubaddal bo‘ladi. Ko‘ngil ko‘ngil bilan sirlashadi; ma’naviy rishtalar ich-u toshdan bog‘lanadi; nurlar tutashadi, ruhlar diydorlashadi, dillar g‘oyibona gurunglashadi.

Beadab devona bexushlik, aqlsizlik, nodonlik manzilidan duogo‘ylik maqomiga ko‘tariladi. Ba’zan tosh qotgan yurak, so‘finaqsh ziyolimonand nafs bandalari inson ko‘nglini anglamaydi. Do‘st ko‘ngli bilan hisoblashmaydi. Zotan manfaatlar to‘qnashgan, nafs jilovi qo‘ldan chiqqan, ko‘zlar o‘g‘rincha o‘ynoqlagan muhitda ko‘ngil qorayadi. Oraliqda haybatli devorlar paydo bo‘ladi. Yurakni vahshat buluti qoplaydi. Gohida odam odamni anglamaydi, anglashni istamaydi. Holbuki, ko‘z ko‘ngildan, ko‘ngildagi iymon bulog‘idan suv ichsagina odamning nazari tiriladi. Aslida, ko‘z ildizi ko‘ngilda bo‘ladi. Alisher Navoiyning oliy dargohida bunday tafakkur darslari uzluksiz davom etajak.

B.NURMUHAMMAD

Boshlanishi 1-sahifada.



BOZOR TALABIMI YOKI SUN’IY HOSILA?

Shaharlik odamning chorva to‘g‘risidagi tushunchasi qishloq odaminikidan farqli. Shaharliklar asosan iste’molchi, qishloq ahli esa ham yetishtiruvchi, ham iste’molchi. Gap ohangidan shaharlik tanishim qishloq odamlarini insofsizga chiqarayotganday.

Aslida haqiqat qayerda?

...Jiyanim dallollik qiladigan Bog‘ot tumani markazidagi “mol bozori” ta’rifi daryo oshgan – Amudaryo ortidagi To‘rtko‘l, Ellikqal’a va Beruniy tumanlaridan ham xaridorlar kelishadi. Faqat xaridorlar emas, haftaning chorshanba kuni qaynaydigan bozorga sotish uchun chorva mollari ham keltirishadi. Aynan ushbu bozor daryoning ikki qirg‘og‘ida yashovchi aholi uchun qo‘y-qo‘zi, qoramol-u echki narxlarini belgilaydi. Va, albatta, go‘sht narxini ham.

Jiyandan ko‘pincha har haftalik bozordan so‘ng chorva narxi haqida so‘rayman. Bu shunchaki qiziqish emas – xonadonimizda hamisha ikki-uch bosh sigir boqiladi. Kamida ikki yilda bir bosh ho‘kiz yoki g‘unajinni bozorga chiqaramiz.

Kuni-kecha odatimga ko‘ra chorva mollari bahosi bilan qiziqdim. Jiyanim bosh chayqadi: “Kecha bozorda molni yer ko‘tarmadi – bahosi oyoqosti bo‘ldi. To‘rt oy oldin sakkiz million so‘mga olib, so‘qimga boqqan ho‘kizni shu bahodan oshirmadilar, qaytarib olib keldim”.

Jiyanim bozordagi arzonchilikni vaqt va zaruriyatga bog‘laydi. Voha qishloqlarida yashovchi aholi bahor boshlamasida qo‘lida ortiqcha pul bo‘lsa mol xarid qiladi. Sababi, ilkida qo‘shimcha tomorqasi bor – chorva uchun yemish tayyor. Olti oy boqilgan buqacha kech kuzda xarid qilingan narxidan ikki hissa ko‘proqqa ketadi. Buyam bir tadbirkorlik-da!

Kuzda vohada chorva mollari narxlari keskin tushadi. Sababi, ko‘pchilik yoz bo‘yi boqilgan buqa-yu sigirlarni bozorga solishadi. Kimlardir farzandi uchun ta’lim kontraktini to‘lashi kerak, kimlardir to‘y boshlab qo‘ygan. Yana qish sovuq kelsa... keksalar aytmoqchi: “Chorva o‘z xunini yeydi”.

Ayni to‘kinlik shu damda boshqa bozorlardagi kabi mol bozorlarida ham kuzatilyapti, ammo...

...Go‘sht narxi noyabr oyiga kelib birdaniga osmonga sapchidi. Muqaddam kanorada mol go‘shti 80 ming so‘mdan sotilgan bo‘lsa, hozirda 110 ming so‘mga chiqqan. Nega?

Ayrimlar nazdida bozordagi narx-navo pensiya va oylik maoshlarning oshishiga bog‘liq. Pensiyalar sentyabr, oylik maoshlar esa oktyabr oyidan oshirildi – 15 foizga. Agar shunday bo‘lganida bir kilogramm go‘sht narxi 90 ming so‘mning nari-berisida bo‘lishi kerak edi-ku!

Shu o‘rinda bozordagi narx-navoni AQSh dollarining rasmiy kursi belgilashi haqidagi nosfurush bilan bog‘liq latifa esga tushadi:

“Nega nosingiz qimmatladi?”

“Dollar ko‘tarildi-da, inim!”

Ayrim insofsiz savdogarlar haqida to‘qilgan bu latifani e’tibordan soqit qilmay turaylik-da, bir savolga javob izlaylik: nega kutilmaganda go‘sht narxi keskin ko‘tarildi?

Buni chorva ozuqasi qimmatligi bilan bog‘laydiganlar bor. To‘g‘ri, bugun don kombinatlarida un chiqarish jarayonida chiqadigan bug‘doy kepagi bug‘doy narxidan yuqori. Bu nomutanosiblik sabablari haqida mas’ullar izoh berishganiga ko‘zimiz tushmadi. Yoki paxta chigitidan olinadigan kunjaraning bahosi paxta narxi darajasida. Shundan ayrimlar kepak olmay, bug‘doyning o‘zini maydalab chorvasiga yedirishni ma’qul ko‘rishadi. Bugun bir kilogramm sabzi bir yarim ming so‘mdan sotilmoqda. So‘qimga chorva boqayotgan ko‘pgina xonadon egalari sabzidan ham chorva ozuqasi sifatida foydalanishga o‘tishgan. Ham arzon, ham chorvaga yuqumli.

Ikki yil oldin vohada yetishtirilgan sholi poyasini chorva ozuqasi sifatida har kipi(bog‘lami)ni 12 ming so‘mdan xarid qilish mumkin edi. Bugun esa bir kip somon 5-6 ming so‘mdan sotilyapti. Yoz davomida bug‘doy somoni ham o‘tgan yilgidan ancha arzon sotildi.

Odatda, chorva mollari narxini uning ozuqasi belgilashi kerak. Bugun chorva ozuqasi o‘tgan yillarga nisbatan ancha – deyarli ikki hissa arzonlashgan, ammo chorva mahsuloti hisoblanmish go‘sht bahosi yuqorilab boryapti.

Va yana chorva mahsulotlari narxini ularning soni belgilaydi, albatta. Bugun voha qishloqlarida yashovchi aholi ilkida viloyatdagi barcha chorva fermerlari ilkidagidan bir necha o‘n baravar ko‘proq molqo‘y bor. Yer maydonlarining aksari qumlikdan iborat Tuproqqal’a tumanida voha ahlining necha o‘n ming bosh qo‘y-qo‘zilari boqilyapti. Aynan shu hududda yaylovlar tashkil qilingani so‘nggi uch yilda vohada qo‘ylar bosh soni keskin oshishiga zamin yaratdi. O‘tgan yili e’lon qilingan rasmiy ma’lumotda aholi xonadonlarida boqilayotgan qoramollar soni salkam to‘qqiz yuz ming bosh deb ko‘rsatilgan. Bu aniq raqam emas, sababi – aksar xonadon egalari chorva bosh sonini yashirishadi – “bosh soniga qarab soliq solishadi”, degan gumonga borishadi. Bir vaqtlari – sovet zamonlarida yuritilgan shunday siyosat ta’siri haliyam yashovchan.

Aholining go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘la qondirish maqsadida so‘nggi yillarda vohada tovuqchilik, quyonchilikka asoslangan tadbirkorlik avj oldi. Qishloq aholisining aksari ham tovuq boqishni ma’qul ko‘rishadi. Buni har yil bahorda jo‘ja chiqaradigan tadbirkorlarning qo‘li-qo‘liga tegmasligidan ham bilish mumkin. Shu sabab bugun qishloq do‘konlarida tovuq go‘shti yil davomida sotilyapti. Yana qo‘y va mol go‘shtiga qaraganda ancha arzon. Istiqlolning dastlabki davrlarida bir kilogramm baliq bir kilogramm go‘sht bahosiga teng edi. O‘tgan davrda vohaning Qoraqumga chegaradosh bo‘sh yotgan yerlarida yuzlagan sun’iy ko‘llar qazildi – baliqchilik tezkor rivojlandi. Shundan bugun baliq narxi go‘shtdan deyarli to‘rt marta arzon. Har bir bozorda alohida “baliq mahsulotlari” pavilonlari ishlab turibdi. Baliqchilik bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlar o‘z mahsulotlarini mahallama-mahalla yurib sotishni yo‘lga qo‘yishgan.

Bozorda bahoni ehtiyoj va talab belgilaydi, deyilmish yozilmagan qonun bor. Shu o‘rinda aholining daromadlari oshgani sabab go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan talab ham oshganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Bir vaqtlar – atigi chorak asr ilgari qozoni haftada bir marta go‘sht ko‘radigan xonadonlar bugun go‘shtsiz ovqat pishirishmaydi. Kamida ikkita go‘shtli ovqat tortiladigan davralar – turli to‘y-u tadbirlar rosa urfga kirdi.

Talab oshgani narxga ta’sir qildimi? Birdaniga-ya? Odatda narx-navo mavsumga qarab sekinlik bilan oshib borishi kerak emasmi? Ko‘p yillarni shunday an’ana kuzatilayotgandi.

...Kutilmaganda go‘sht bahosining keskin oshgani hukumatimiz nazaridan chetda qolmadi.

Prezidentimiz yaqinda mas’ullarga go‘sht va kartoshka narxlarini nazorat qilish bo‘yicha topshiriq berdilar.

Yurtboshimiz topshirig‘i ijrosini ta’minlash uchun mahalliy hokimliklar ko‘radigan tezkor choralardan biri – chorva fermerlariga mavsumiy yarmarkalar tashkil qilish va arzon go‘sht sotishni yo‘lga qo‘yish bo‘ladi. Bir qaraganda bu tadbir ayni muddaoga o‘xshaydi, ammo uning nojoiz tomonlari ham talaygina. Chorvasi uchun ozuqani qimmat baholarda olayotgan fermerlar o‘zlari yetishtirgan go‘shtni bozordagidan arzon sotishga osonlikcha rozi bo‘lishmaydi. Bo‘lishsa-da, bu uzoqqa cho‘zilmaydi – har fermer bir bosh ho‘kizini so‘yib sotadi va “topshiriq bajarilgani” haqida hisob beradi. Ayrim chorva fermerlari topshiriqni bajarishda “naqd pul aylanmasi usuli”ni qo‘llashadi, ya’ni tanish qassobga kunlik tushumi zararini qoplaydigan miqdorda pul taklif qilishadi. O‘rtadagi farqni qoplaydigan pulni olgan qassob belgilab berilgan narxda, ya’ni go‘shtning har kilogrammini 80 ming so‘mdan sotadi. Bundan xaridor va qassob manfaatdor bo‘ladi, yetishtiruvchi esa zarar ko‘radi.

Ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz – go‘sht rastalarida narx ko‘zga ko‘rinadigan qilib yozib qo‘yiladi “Har kilogrammi 80 ming so‘m”, ammo qassob taroziga tortgach, albatta, ustiga o‘sha ustamani qo‘yadi. Norozi bo‘lgan xaridorga tushuntiradi: “Bizlarga hokimlikdan topshiriq berildi, ularni molni qanchaga olganimiz, boshqa xarajatlarimiz qiziqtirmaydi. Agar ular aytgan narxdan sotsam uyim kuyadi-ku!”

Bayramlar arafasida tashkil qilinadigan oziq-ovqat yarmarkalarida belgilangan narxlar aslida sun’iy – mahsulot tannarxidan kelib chiqib belgilanmaydi. Bir tomonni norozi, yana bir tomonni rozi qilish usuli hech qachon kutilgan samara bergan emas.

...O‘tgan asrning saksoninchi yillarida tuman xalq nazorati tashkiloti a’zosi bo‘lganman. Tuman xalq nazorati tashkiloti har oyda bir marta “bozordagi go‘sht narxini nazorat qilish uchun” ishchi guruhi tuzardi. Ishchi guruhi a’zolari mol bozoriga borib, so‘qimga boqilgan bir bosh ho‘kizni savdolashib xarid qilishar va uni kushxonada so‘yib, necha kilogramm go‘sht berishi, har kilogrammi necha so‘mdan tushishi, ya’ni tannarxni aniqlash asosiy maqsad bo‘lardi. Ishchi guruh o‘rgangan holat bo‘yicha tuzilgan bayonnomada molning bahosi, qassobning boshqa xarajatlari (yo‘l haqi, elektr energiyasi iste’moli, to‘laydigan solig‘i) hisob-kitob qilinib, shundan haqiqiy tannarx qancha ekanligi aks etar, bu yo‘riqnoma vazifasini bajarib, qassoblar bir kilogramm go‘shtni ham shu bahodan yuqori sota olishmasdi. Ishchi guruhining har oyda bir marta shunday tadbirlarni o‘tkazishi mavsumga qarab chorva mollari bahosi oshib yoki pasayib turishini ko‘rsatardi.

Hozir-chi?

Eski davrdan meros barcha ustqurmalarni yo‘qqa chiqarishga ustamiz. Ammo sovet davrida qo‘llanilgan bu usul aslida o‘tmishdan – xon zamonlarida qolganini unutamiz. Xonlik davrida ham narx-navoni nazorat qilishda aynan shu usul qo‘llanilgan, bu orqali bozorlarda narx-navo keskin sapchib ketishining oldi olingan. Bunga yo‘l qo‘ygan insofsiz savdogar ahli qattiq jazolangan.

Xo‘sh, bugun shu qadim amaliyotga qaytish qiyinmi? Qolaversa bu juda murakkab jarayon ham emas. Hokimlik tuzgan ishchi guruhi hech bo‘lmaganda oyda bir marta chorva mahsulotlari tannarxini aniqlashi va bahoni shundan kelib chiqib belgilashi va savdoni qat’iy nazorat qilishi kerak. Ayni paytda hokimlik o‘z hududidagi don kombinatlari hamda chorva ozuqasi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tadbirkorlar sarf-xarajatlarini ham shu yo‘sin nazoratga olib, asl tannarx va sotilayotgan bahosi o‘rtasidan tafovutni aniqlashtirishi shart!

Shunda kabob ham, six ham kuymaydi... shaharlik tanishim yozg‘irishlariga o‘rin ham qolmaydi.

Yuqoridagi kuzatuvlarimdan chiqargan xulosam – bugun go‘shtning qimmatlagani tabiiy holat emas, balki kimlarningdir manfaati uchun o‘ylab topilgan sun’iy hosila.

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

MILLAT FIDOYILARI

TO‘RAQO‘RG‘ON TO‘RASI TO‘G‘RISIDA

Tongda Namangan sori yuzlandik. Is’hoqxon To‘ra Ibrat muzeyiga! Ketarkanmiz yo‘lchilikda anqoning urug‘i bo‘lgan yuqori didli haydovchi uchraganiga bir sevinsak, to‘lqinida oqizayotgan qo‘shiqlarda ming yayradik. Yo‘l davomida hazrat Lutfiydan tortib Shoh Mashrabgacha hamrohimiz bo‘ldi. Buni ham Ibrat domla ziyoratining xosiyatiga yo‘ydik. Nihoyat, qadamimiz To‘raqo‘rg‘onga yetdi. Dastlab, Is’hoqxon Ibrat muzeyiga yondosh bog‘ qarshi oldi bizni, ko‘nglimiz gurkiradi. Ibrat domlaning haykallari qoshida haykaldek qotdik.



Uning atrofida munchoq ko‘zli qushchalar, charx urib, quyidagi satrlarni xirgoyi qilardi go‘yo:

Umringiz bo‘lsun daroz, ham baxtingiz
bo‘lsun kushod,
Oxuni barpo bilan qo‘sha qaring,
xush keldingiz...

Biroz narida soqollari uzun, qoshlari qora va qalin, yuzidan nur yog‘ilib turgan otaxon ko‘rindi. Yo tavba! Is’hoqxon To‘raning shaxsan o‘zlari-ku?! Uyqu kam bo‘ldimikin? Ko‘zimizga ko‘ringan ro‘yomikin bu? Ko‘rsatkich barmoqning orti bilan qovog‘larni ishqay ketdik. Tasvir bir xiralashib, sekin-asta o‘shal aziz siymo yana paydo bo‘ldi. Bir payt deng, mayin ovozda salomlashib, qo‘l cho‘zib qolsa bo‘ladimi?!

– Yaxshi keldinglarmi? Siz bilan telefonlashganmidik?

E-ha! Bo‘ldi, bo‘ldi! Mashinadagi oromijon qo‘shiqlar xayolni ancha chalg‘itib qo‘yibdi. Qarshimizda turgan muhtaram zot Ibrat domlaning chevarasi – Islomxo‘ja Sulaymonov bo‘ladilar-ku?! Qayta salomlashdik. U kishi bizni muzey tomon boshladi.

Is’hoqxon Ibrat muzeyi To‘raqo‘rg‘on tumanidagi madaniy meros obyekti bo‘lgan G‘oyibnazar Qozi madrasasi negizida tashkil etilgan. Chunki bu mo‘jaz maskanda Ibrat domla yigirma yildan ortiqroq vaqt mobaynida qozilik qilgan. Mana shu eshikdan kirib-chiqqanlarning arz-dodini tinglab, mushkulini oson etgan. Muzey bir necha bo‘limdan iborat.

ILMIY, ADABIY MEROS VA SHAXSIY BUYUMLAR

Avvalo, muzey eksponatlari qanday yig‘ilganiga qiziqdik. Islomxo‘ja Sulaymonovning aytishicha, muzey tashkil etilishi to‘g‘risida qaror chiqqach, ishchi guruh Ibrat domlaning avlodlari bilan hamkorlikda ish olib borgan. Ular esa o‘zlarida mavjud bo‘lgan buyumlarni muzeyga taqdim etgan. Siz aynan qaysilarini keltirgansiz, deganimizda uchta buyumni ko‘rsatdilar:

Bambukdan yasalgan hassa. Bilamizki, Ibrat domla “Lug‘ati sitta al-sina” ya’ni olti tilli lug‘at yaratish maqsadida Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, shuningdek, Kobul, Makka, Kalkutta, Bombey, Qashqar kabi shaharlarda bo‘lgan. Bunda olis va mashaqqatli safarda hamroh bo‘lgan hassa avloddan avlodga o‘tib, Islomxo‘ja otaning uzoq qarindoshlarida saqlanib qolgan.

Milliy naqshlar tushirilgan belbog‘. “Bu chorsini Is’hoqxon to‘ra Ibratning nabirasi, volidayi muhtaramamiz Ma’sudaxon Baqqosova berganlar. Yillar davomida ko‘z qorachig‘idek asrab, oxiri shu yerga topshirdik.”

Yog‘ochdan ishlangan qadimiy qalamdon. “Bu qalamdon ham bizda saqlanardi. Bulardan tashqari mis obdasta ham bor. Uni ammamiz Zarifaxon berganlar. Buni ham Ibrat bobomizning shaxsan o‘zlari ishlatganlar”, deydi mezbon.

Navbatdagi vetrinada Is’hoqxon Ibratning o‘zi va oila a’zolari tushgan suratlar saqlanadi. Uning yonida esa ma’rifatparvar shoirning o‘zi tuzgan shajarasi turibdi. Ushbu hujjat yigirmadan ortiq qozilarning muhri bilan tasdiqlangan. U Ibrat domlaning ajdodlari Xoja Ahmad Yassaviyga borib taqalishini isbotlovchi hujjat hisoblanadi..

Ibrat taxallusimdur, ahfodi Hazrati Sulton,
Shuhratda – Hoji to‘ra, ma’vosi – To‘raqo‘rg‘on.

Bu yerda ip yigiruvchi charx ham mavjud. Bu eksponat Ibrat domlaning oila a’zolariga tegishli bo‘lgan. Devorga osilgan tanbur va uning ostida turgan qizil patefon esa domlamizning musiqa shaydosi bo‘lganidan dalolat berib turibdi. U kishi chet el safarlarida tirikchilik qanday bo‘lgan degan savolga shu yerda saqlanayotgan qo‘lyozmalar javob beradi. Ibrat domlaning husnixatlari juda chiroyli bo‘lgani uchun u kishi turli kitoblar, xat-hujjatlar, shuningdek, qabrtoshlarni ko‘chirib berish orqali safar xarajatlari uchun yetarli pulga ega bo‘lgan.

Ibrat domlaning sayohatlari aks etgan xaritaga qarab, hayratimizni yashira olmadik. Uning yonidan Is’hoqxon Ibrat avlodlarining rasmlari joy olgan.

ILMIY MEROS

Bizni keyingi bo‘lim bilan muzey direktori Otabek Maqsudjonov tanishtirdi. Kiraverishda xona o‘rtasida joylashtirilgan Ibrat domla yashagan xonadon maketi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Unda arkka tutash bino, ichkari hovli va “usuli savtiya” maktabi gavdalantirilgan. Ular ortida kattagina bog‘ va favvora (!) ham bo‘lgan. Hozir mazkur xonadondan faqatgina kiraverishdagi ark saqlanib qolgan.

Bugun til o‘rganish uchun sharoitlar yetarli. Vaholanki, Ibrat domla bugungi sharoitlarsiz ham arab, fors, rus, hind, urdu, ingliz, fransuz tillarini yaxshi bilgan. Buning ustiga eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o‘rgangan. Tirik tillar-ku, mayli, lekin deyarli muloqot qilinmaydigan yunon tili-chi? Hamma gap o‘sha tilda qadimgi yunon olimlari yozib qoldirgan noyob asarlarni o‘qish, o‘rganish ishtiyoqi kuchli bo‘lganida!

Bu bo‘limdan joy olgan “Lug‘ati sitta al-sina” (“Olti tilli lug‘at”), “Jome’ ul-xutut” (“Xatlar majmuyi”), “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat” , “Mezon uz-zamon” (Zamon tarozusi), “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” kabi o‘ndan ortiq tilshunoslikka oid, ilmiy-tarixiy hamda ma’rifiy asarlar, xarita va qo‘lyozmalar uzoq yillik mehnatlar samarasidir.

Muzey hovlisida tuyalar va karvonboshi haykali bor. Bu ham ramziy ma’no kasb etadi. Ma’rifatparvar shoir, olim, sayyoh, matbaachi va muallim Is’hoqxon To‘ra Ibrat o‘lkamizdagi ilk matbaachilardan biri sifatida, 1908-yil Orenburg shahridan litografik mashina sotib olib, uni Orenburgdan Qo‘qongacha poyezdda, Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘onga tuyalarga ortib, katta mashaqqatlar bilan olib kelgan va o‘z hovlisida “Is’hoqiya bosmaxonasi”ni tashkil qilgan. Bu bosmaxona o‘tgan asrning 60-yillarigacha faoliyat ko‘rsatib kelgan va u yerda o‘tgan davr mobaynida bir qator ilmiy-ma’rifiy kitob va risolalar, milliy gazetalar chop etilgan, ularni tarqatish uchun Farg‘ona vodiysi bo‘ylab o‘nlab kitob do‘konlari tashkil qilingan. Ikkinchi bo‘limda o‘sha davrga oid buyumlar va suratlar saqlanmoqda.

IJODXONA

Ushbu bo‘lim ramziy ashyolardan iborat. Uzoq-yaqindan kelgan ziyoratchilar o‘sha davr muhitini his qilishi va yetarlicha tasavvurga ega bo‘lishi uchun o‘zbekona ko‘rpacha, sandal, so‘zana va shu kabilar bilan bezatilgan.

Shuningdek, majmuadan Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi ham joy olgan. Unda Namangan viloyatida tug‘ilib-o‘sgan, turli sohalarda faoliyat olib borgan qatag‘on mashinasi ishlagan vaqtlarda hibsga olingan, qiynoqlarga solingan va jismoniy yo‘q qilingan ziyoli insonlarga oid ma’lumotlar, suratlar va buyumlar saqlanadi. Hatto bir xonasi NKVD askarlari so‘roq qilayotgan ma’rifatparvar olim ko‘rinishi maniken orqali gavdalantirilgan. Ko‘rgan kishini seskantiradigan ushbu xona o‘sha paytdagi tergov-surishtiruv jarayonlari haqida ma’lum tasavvurlarni jonlantirib yuboradi.

Ikki gektardan ziyod maydonni tashkil etgan Is’hoqxon To‘ra Ibrat memorial majmuasida g‘ururlanishga arzigulik ishlar qilingan. Loyiha qiymati 13 milliard so‘mdan ziyod majmua bog‘-xiyobon, uning o‘rtasida Is’hoqxon To‘ra Ibratning haykali, milliy me’morchilik uslubidagi ayvon, bosmaxona, ilg‘or texnologiyalar asosida qurilgan musiqali favvora, chet tillarga ixtisoslashtirilgan 400 o‘rinli maktab-internat va tarixiy me’morchilik obidasida barpo etilgan muzeyni o‘z ichiga oladi. Endi bizga bulardan faqatgina unumli foydalanish, ajdodlar me’rosini chuqur o‘rganish, ilmiy yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilib, jahonning ilg‘or davlatlari bilan bellasha oladigan avlodni shakllantirish qoldi.

Umuman olganda mazkur manzil haqida gazetada o‘qish, ijtimoiy tarmoqlar orqali tanishish yetarlicha taassurot bermaydi. Boshqalarga ibrat bo‘lishni istasangiz, siz ham Is’hoqxon To‘ra Ibrat memorial majmuasini “ko‘rgoni keling”!

Shahriyor SHAVKAT



MUTOLAA

ALLOMANI TANISH



O‘tgan asrda ilm-u ma’rifat ila xalqni mustamlaka zug‘umidan xalos etishga uringan jadidlik harakatining har bir hududda o‘z yetakchilari, yo‘lboshchilari bo‘lgan. Biroq mazkur harakatning shunday namoyandalari borki, ularning ilmiy-ijodiy faoliyatini, jaholatga qarshi kurashini nafaqat butun mamlakat, balki mintaqa miqyosidagi ish sifatida xarakterlash mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ana shunday ulug‘ shaxslardan biri edi. Adib, publitsist, noshir va muharrir, faol jamoat arbobi sifatida Samarqandda turib ko‘rsatgan jiddu jahdi uni jadidlik harakatining yetakchilaridan biriga aylantirgandi. Turkiston milliy uyg‘onish davri yirik vakilining ilmiy-ijodiy merosi ko‘lami ham shunga monand juda salmoqlidir.

Mazkur merosni o‘rganishga umrini bag‘ishlagan jadidshunos olimlar, tarixchilar, adabiyotshunos-u tilshunoslar ro‘yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Biroq bugun “zamonamiz jadidi” deya ta’riflangan, kamtarin olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, san’atshunoslik fanlari nomzodi Sirojiddin Ahmadning mazkur ro‘yxatda o‘z o‘rni bor.

Zahmatkash olim ilmiy faoliyati davomida Behbudiy fenomeniga ko‘p bora murojaat qilgan. Yaqinda nashrdan chiqqan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” kitobi ham uzoq yillik izlanishlar va tinimsiz mehnat samarasidir. Ushbu kitobning avvalgi jildlikdan farqli tomoni shundaki, Behbudiyning “Vaqt”, “Ulfat”, “Turkiston viloyatining gazeti”, “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Tujjor”, “Samarqand”, “Siroti mustaqim” kabi nashrlarda e’lon qilingan maqolalari jamlangan. Yana bir muhim jihat, mazkur kitobda adib asarlarining fixristi ham ilova qilingan.

Behbudiy faoliyatiga oid arxiv hujjatlari, tarixiy suratlar kitob mundarijasidan o‘rin olgan materiallarni yanada boyitgan. Ular maqolalarda so‘z borayotgan jarayonlar va o‘sha davr odamlari haqidagi o‘quvchi tasavvurini oydinlashtirib boradi.

Kitobdan o‘rin olgan maqolalar bilan tanisha turib, qatag‘on qilichi boshi uzra xavf solib turgan bir davrda el-u yurt manfaati uchun, o‘g‘il-qizlar ertasi uchun o‘z jonini garovga qo‘yib, matonat ko‘rsatgan Behbudiy bobomizning irodasiga qoyil qolishingiz aniq. Chunki o‘z hayoti, ro‘zg‘ori tashvishlaridan kechib, xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish, jaholat zulmatidan ma’rifat quyoshi sari yetaklash ajalning ko‘ziga tik boqish bilan teng ish edi.

Bugun biz yuksak jasorat namunasi bo‘lishga munosib jadid namoyandalari haqida yuzaki ma’lumotlar bilan cheklanayotgandekmiz. Ustoz Sirojiddin Ahmad tiklagan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” kitobi bizga jadidlik harakatining mazmun-mohiyati, mazkur harakat a’zolari, xususan Behbudiy hazratlari to‘g‘risida fundamental bilim olish imkonini beradi.

Ruxshona BOBONAZAROVA,
O‘zJOKU talabasi

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Imomali Ergashev – 1899-yili Pop rayoni Chorkisar qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi bosmachilikda ayblanib otib tashlangan. O‘zi ham bosmachilikda ishtirok etganlikda gumonlanib qamoqqa olingan. Qamoqqa olingan vaqtda kolxoz a’zosi bo‘lgan. “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Aksilinqilobchi, mag‘lubiyatchi kengashlarda qatnashib, urush to‘g‘risida mag‘lubiyatchilik targ‘ibotini olib borganlikda, SSSRdagi ochlik to‘g‘risida mish-mishlar tarqatganlikda, kolxozchilarni o‘zlariga tegishli uy hayvonlarini sotib yuborishga da’vat qilganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli buyumlar musodara qilingan.

Xolmat Mavlonov – 1892-yili Pop rayoni Xonobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Sobiq quloq sifatida kolxozdan haydalgan. “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Kolxozchilar orasida aksilinqilobiy millatchilik targ‘ibotini olib borganlikda, bosmachilik, qo‘poruvchilik bilan shug‘ullanganlikda, kolxozchilarni kolxozdan chiqishga da’vat etganlikda, kolxozchilarga tegishli 350 bosh qo‘y halok bo‘lishida ayblanib, otuvga hukm qilingan. Unga tegishli buyumlar musodara etilgan.

Unar Orifxo‘jayev – 1878-yili Uyg‘ur qishlog‘ida tug‘ilgan. Sobiq quloq, bosmachilik homiysi sifatida hibsga olingan. Qamoqqa olingan vaqtda yo‘l bo‘limining boshlig‘i bo‘lgan.

U “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Aksilinqilobiy tashkilotlar topshirig‘i bo‘yicha o‘z uyida aksilinqilobiy kengashlar o‘tkazgan. Bosmachilikda ayblangan guruhlar tashkilotchisi bo‘lgan va ularga qurol tarqatgan. 1930-yili Uyg‘ur qishlog‘ida kollektivlashtirishga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan. Kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borgan. Monarxik tuzumni maqtaganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli buyumlar musodara qilingan.

Abdurahim Normatov – 1874-yili Pop rayoni Chorkisar qishlog‘ida tug‘ilgan. Sobiq quloq, bosmachi sifatida sudlangan. “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Hibsga olingan paytda kolxoz a’zosi bo‘lgan. 1930-yili kollektivlashtirishga qarshi aksilinqilobiy qo‘zg‘olonda faol qatnashgan. Nolegal aksilinqilobiy kengashlarda ishtirok etganlikda, aksilinqilobiy mag‘lubiyatchilik targ‘ibotini olib borganlikda ayblangan. Unga nisbatan O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi qo‘llanilib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Qamoq muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

Ermat Normatov – 1904-yili Pop rayoni Chorkisar qishlog‘ida tug‘ilgan. Quloqning o‘g‘li, eshon, aksilinqilobiy faoliyatini olib borgan bosmachi sifatida sudlangan. Ilk qamoqqa olingan vaqtda kolxoz a’zosi bo‘lgan. “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a’zolari tarkibida 1930-yili kollektivlashtirishga qarshi aksilinqilobiy qo‘zg‘olondagi faol ishtiroki, aksilinqilobiy faoliyati uchun sudlangan. 1937-yil avgustda qayta hibsga olingan. Nolegal aksilinqilobiy kengashlarda ishtirok etganlikda, aksilinqilobiy mag‘lubiyatchilik targ‘ibotini olib borganlikda ayblangan. Unga nisbatan O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi qo‘llanilib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Qamoq muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

Xudoynazar Imomnazarov – 1883-yili Pop rayoni Chorkisar qishlog‘ida tug‘ilgan. U 1935-yili sobiq quloq, bosmachilik harakati ishtirokchisi sifatida aksilinqilobiy faoliyati uchun 2 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Hibsga olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lgan.

U “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi sifatida bosmachilik harakatida faol ishtirok etganlikda, kollektivlashtirishga qarshi qo‘zg‘olonda faolligi hamda aksilinqilobiy, nolegal yig‘inlarda aksilinqilobiy qo‘zg‘alon tayyorlash to‘g‘risidagi masalalar muhokamasida qatnashganlikda ayblangan. Xudoynazar Imomnazarov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Qamoq muddati 1937-yil 28-avgustdan hisoblangan.

Qurbon Mirzayev – 38 yoshda, Behbudiy shahridan. Millati o‘zbek. Ikki marta sudlangan. 1928-yili Jinoyat kodeksining 140-moddasi va 1934-yili 143-moddasi bilan ayblangan. 1921-yildan “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. U 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Qamoq muddati 1937-yil 29-avgustdan hisoblangan.

Shoimardon To‘rayev –1900-yili tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Behbudiy rayoni Pastakent qishlog‘ida yashagan. Yirik zamindor amir amaldorlaridan qorovulbegining o‘g‘li. Otasi “Jevachi” amaldori, qishloq xo‘jaligiga oid yer-suv islohotiga zarar yetkazgan. Shoimardon To‘rayev 1921-yildan “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Qamoqqa olingan vaqtda o‘rmon xo‘jaligida texnik bo‘lib ishlagan. 1937-yil 30-avgustda 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Odina Rahmatullayev –1896-yili tug‘ilgan. Behbudiy shahri fuqarosi, o‘zbek, savdogar oilasidan. 1931-yili javobgarlikka tortilib, 4 oy qamoqda ushlab turilgan. Hibsga olingunga qadar kolxozda ombor mudiri bo‘lib ishlagan. 1921-yildan “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Uchlikning qarori bilan 8 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 22-avgustdan hisoblangan.

Inoyatulla Abduxoliqov – Kattaqo‘rg‘onda yashagan. Yirik savdogar. 1933-yili soliq to‘lamagani uchun 3 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Qamoqqa olingunga qadar Kattaqo‘rg‘on shahrida arxivturistda ishlagan. U 400 kishidan iborat bosmachilar to‘dasini tashkil etganlikda, 1925-yili o‘z xizmat vazifasini suiste’mol qilib, quloq xo‘jaliklarining uylarini milliylashtirish bo‘yicha mahalliy xo‘jalik arxivini yoqib yuborganlikda ayblangan. U 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 19-sentyabrdan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor.
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

HAJV

DARDI BEDAVO

Soqol-u qoshga oq oralab, qaynatma dumbulni chaynashga sog‘ tish qolmagach, aql quyulib, shashtim suyulib, pahmim yetgani shu bo‘ldiki, ko‘ngil jonivorni “Bahor” dastasi qizlarining pirpirak ko‘ylagidek keng tutish kerak ekan.



Bayt:

“Sog‘liqning kushandasi
ishqibozlikdur,
Uzoq yashay desang,
uzlat tomon sur”,

(Qaralsin: Tursunali Qarchig‘ay. 12-tom, “Qamishzordan mo‘ralagan jononim”, 58-bet. Nashriyot: “Bitbildiq-mamov-books” MChJ. Chuvalanchi QFY. – **M.X.**)

Birorta bandani tangri kaminaga ro‘para qilmadiki, ishqibozlik ortidan baraka topib yo ro‘zg‘ori, yo toleyi gullab ketgan bo‘lsa... Xo‘rozboz, bedanaboz, qimorboz va boshqa ...bozlarni aksari yo birpaslikka yo‘liqib, yohud biror nahs bosgan oqava qudug‘iga kalla tashlab, ajalidan burun Azroilni oldiga tushib jo‘navorgan. Bari kasopatni tomiri, hali aytganimdek, nedir bir bemaza mashg‘ulotni belga belbog‘ qilvolishda...

O‘zimdan so‘rasangiz, asli unchayam irim tortadigan eski odammasman. Gorbach mohov taxtga mingashgan payti endigina “uchta tuz”ni urgan, ya’ni qirchillagan paytim edi. O‘shanda qilar ishi yo‘q yo‘qsullar yoppasiga yo xakkeyga yo pidbo‘lga surunkali kasal edi (yo atay yuqtirilar edikim, tokim qora tomoshaga ilakishib, avom siyosatga surkanmagay). O‘zimizniyam “Paxtakor” degan vujudi oqquloq yurago‘ynoqi to‘ptepar jamoamiz bo‘lardi. Palakat bosib, Ovro‘pani qaltiratib turgan “Spartak” yo “Dinamo Kiyev”ni safarda po‘killatib qaytardi-yu, shopirma atala ichib yotgan umidimizni yana reanimatsiyadan palataga obchiqib qo‘yardi. Keyin yuraverarding “agar”ni “magar”ga nikohlab... Toshkentda bo‘lsa, qozoqni “Qayrat”iga uch-to‘rtta beminnat urdirib, chayqovda tilizo‘rni narxini sakratvorardi. O‘sha paytlar bo‘lsa kerak, stadion yonidan o‘tib ketayotgan Abdulla Qahhor hamrohidan so‘ragan ekan:

– Toshkentda qancha tentak bor, bilasizmi?

– Aniq aytolmayman. Sanamaganman.

– Ana shu stadionda nechta o‘rindiq bo‘lsa, o‘shancha tentak bor.

To‘g‘ri aytgan. To‘p tepgan Hasanboy-yu, qonbosimi oshgan Husanboy deganlariday, senga “Ekstra”ni qopqog‘icha dahli yo‘q narsaga bir suyunib, o‘n kuyunib yuraverasan, “O‘l” deydigan odam yo‘q.

Alqissa, o‘ttiz yilcha oldin yaponlarga erinmay sakkizta urdirgan kunimiz pidbo‘lni padariga “sano” aytib, o‘yinchilar-u o‘yinsozlarni astoydil yo‘qlama qilib, tavba keltirgandim: “Oq pichoq-qora pichoq! Qayta pidbo‘l degan so‘zni og‘zimga olsam yo og‘ziga olganlarni yonida tursam, narxim Tezikovka bozorida uch so‘m-kupon bo‘b ketsin!”

Shu qasamdan keyin labzimni toza tutdim: pidbo‘l qozoniga yaqin yo‘lamadim. Ammo... Tunov kun Isroil mazgini zambarg‘altagini singan dastagini yopishtirayotgan Murod shiltaga yordamlashaman deb bexos ko‘zimni payvand chaqnog‘iga oldirib qo‘yibman. Ko‘zim oqquyonnikiday qip-qizil, qo‘qonqa-lampir surtilganday jazillaydi. “O‘l” deydigan odam yo‘q. Xotin achchiq qilib damlab bergan qora choyga bo‘ktirilgan paxtani ko‘zimga bosib, ustidan belbog‘imni tang‘igancha sandalni chetida oxiratimni o‘ylab yotibman. Birdan eshik taraqlab ochilib, o‘rtancha nevaram Mardon gusura-gusur kirib keldi. Qadam olishidan taniyman-da, yerni nog‘ora qiptashlaydi. Dadasi “Napoli”ga ishqivozlik qibyurgan payti tug‘ilgan. Shunga el ko‘ziga “Mardon” deb shahodatnoma olgan-u, o‘zi “Maradona” deb chaqiradi, janas. Buyam pidbo‘l jinnisi. “Hay” deyishimga qaramay, hovliqqancha, tilizo‘rni ulab, Sport kanaliga burvorsa bo‘ladimi! “Ob-bo” dedim. Dard ustiga chipqon bo‘ldi-yu! Kallamni ko‘rpaga burkab yotibman, lekin teshik quloq eshitmasinmi? Boshlab qolishdi-yu! Bizni vaqtimizda Axbor Imomxo‘jayev degan sharhlovchilarni xo‘rozi bo‘lardi. Bor gapni bo‘ladiganini bitta o‘zi shartta-shartta aytardi, qo‘yardi! Bular galalashib chiqvopti. Bitta dimog‘i bitgan dimog‘dori bor ekan. Uyalmay-netmay, she’r o‘qib qolsa bo‘ladimi! Vey, pidbo‘l qatta-yu, she’r qatta! “Bo‘rilarga aylaninglar, bo‘rilarga!” deb nag‘ma qiladi-ya! Bu senga nima, haykonot bog‘imi?! Ochig‘ini aytsam, bu sharhlovchilaring yo mayda millatlar orasida unib qolgan, yo o‘rischa-po‘rischa maktabniyam qorovulxonada bitirgan. Tomoshabinni bir tiyinga olmaydi. Og‘ziga kelganini valdiraydi. Birovi ko‘cha shevasida kuchanib, “boru-boru” desa, ikkinchisi “borde-borde” deb inqillaydi. Bittasi adabiy tilda gapiraman deb, nuqul “moqda-moqda”laydi... “Ishonchingiz komil bo‘lmoqdami?”, “Hayron bo‘lmoqdamisiz?”, “Jarima tepdirilmoqda”, “Maydonda hayqirilmoqda”... Menimcha, bu banda “to‘p tepilyapti” desa, sheriklari pasportini tekshirib qolsa kerak. Yana biri “Himoyachi to‘pni tepishga muvaffaq bo‘ldi” deydi. Iya, agar to‘p tepish pidbo‘lchiga muvaffaqiyat bo‘lsa, boradigan joyga borib qopmiz-da! “Menimcha, Norchayevni murabbiy maydonga qochib ketish uchun tushirgan”, degani-chi? “Mardonjon, bolasi tushgur jinoyatchimikin? Nega qochadi? Kimdan qochadi? Qayga qochadi? Yo aliment-palimenti bormikin-a?” Nevaram: “Hammadan o‘zib ketadi, birovga yetkazmaydi deyapti”, deb do‘ng‘illab berdi. “Ahmadaliyev ikkinchi qavatda yaxshi o‘ynaydi”, deganiga hayron bo‘lib, “Bolam, hamma qavatdagi o‘yinlarni chalkashtirmasdan, bittasini ko‘rsatsa bo‘lmaydimi?” desam, Mardonjon uf tortib, “Kalla bilan o‘ynaganini, to‘pga sakraganini aytyapti”, deb javob qildi. Sharhlovchi “Abdixoliqov katta sahnaga qaytdi”, deb vahima ko‘tarib qoldi. “Iya, pidbo‘lga artislarni nima dahli borakan?!” dedim-u, ko‘rmasam ham nevaram menga o‘qrayganini sezdim. “Qaldirg‘ochlar” “ajdarlar”ni yer bilan yakson qilishdi”. “Mardonjon, pidbo‘l qolib, multik-pultikka o‘tib ketdingmi deyman, “Bolajon” kanaliga?” Nevaram repetitorga qatnamaydimi, qaysidir begona tilda birnimalar deb tashladi. U yoqdagi to‘pto‘pilar sayrab yotibdi: “Laynsmen vingerga kornerni ko‘rsatdi va autsayder jamoada kambek qilish imkoni paydo bo‘ldi”. “Mardonjon, shuncha chet ellik pidbo‘lchilar bizikilarga rosa qimmatga tushgandir?” “Qanaqa pidbo‘lchilar, doda? Bu pidbo‘l terminlari-yu”.

Haligi minqi sharhlovchi jazavaga tushib, “Mana, do‘stlar, shunchaki tomosha qiling, “Istiqlol” stadionini pidbo‘lchilarimiz yondirishmoqda!” deb bo‘kirvordi. Iya, birov qurgan gulday imoratni birov yoqvorsa-yu, bu jonivor shunchaki tomosha qiling deb tursa-ya! Mardonjonga so‘z qotishgayam sabrim yetmay, shart ko‘zimdagi malhampaxtani olib, ne ko‘z bilan ko‘rayki, stadion joppa-joyida turibdi. Olov tugul, “Prima”ni cho‘g‘ichayam uchqun ko‘rinmaydi. “Hozir o‘t ketdi deyatuvdi-yu!” “Ey, doda, tushinmisiz baribir, u pidbo‘l tilida gapiryapti!” Rostdan ham bu til menga to‘g‘ri kelmadi. Tarjimon bo‘lmasa, mendaqalar anglashi gumon. Yo pidbo‘l jinnilarini davolash kerak, yo manovi mahmadonalarni yaxshilab o‘qitish, o‘qitvorish kerak. “Omad siz va bizni aslo tark etmasin!”

Mulla XUNOB

TILBILIM

QUYOSH va GUNESH



Quyoshni aziz tutib “Bobo quyosh” deymiz. Lekin xalqimiz orasida quyosh *kun* deb ham aytiladi. *Kun chiqdi, kun botdi* degan iboralar hamon el orasida, jonli tilda muntazam harakatda yuradi. Aslida bu iboralar bir necha ming yillik tarixga guvohlik beradi. Istaymizmi, istamaymizmi, *quyosh* so‘zidan ko‘ra *kun* so‘zi til tabiatiga ko‘ra yetakchiroq.

“At-tuhfa” lug‘atida kunesh (kÿnäsh) va kun so‘zlari quyosh ma’nosida kelgan. Bu ozarbayjon tilidagi ***gunesh*** so‘zi bilan bir xil. Mundoq farosat solib qarasangiz, ***kunesh*** so‘zi bilan ***quyosh*** so‘zi og‘a-iniday ko‘rinadi. Lekin Mahmud Koshg‘ariyda quyosh ma’nosida ***kun*** so‘zi ham bor, quyosh so‘zining o‘zi ham bor. ***Kÿn tug‘dï. Quyash ani qug‘shatti – Quyosh harorati uni bo‘shashtirdi.*** Shunga ko‘ra quyosh so‘zining kunesh so‘zidan paydo bo‘lgani dargumon bo‘lib qoladi. Shunday bo‘lsa-da, Koshg‘ariy bobo kun so‘ziga ko‘proq diqqat qilgan. Kunning bir necha ma’nosini bergan. Qattiq issiq, qattiq issiq tegishini ham quyash deb izohlagan. Yuqorida keltirilgan birgina misolda ham ***quyosh*** so‘zi “qattiq issiq” ma’nosida ilgariroq turadi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”da ***quyosh***ni ***yashiq*** so‘zi bilan ifodalagan.

“Turkiy tillar etimologik lug‘ati”da turk lahjasidagi ***köveş*** so‘zining ***kõyesh*** so‘ziga bog‘lanishi, Vamberining “kuyish” ma’nosidagi ***kuy*** so‘zidan ***kuyash*** so‘zining paydo bo‘lishi va keyinroq uning ***quyash***ga aylanishi haqidagi farazlar berilgan.

O‘ljas Sulaymonov “So‘z kaliti” kitobida eng qadimgi turkiy belgilarda ***quyosh*** so‘zi ***yay*** shaklida bo‘lganligini aytib o‘tadi. Men **yaylov** so‘zidagi ***yay*** aslida “yoz” bo‘lib, ***yay***ning o‘zgargan shakli ekanini “Yaylov bilan chayla” bitta so‘zmi?” degan maqolamda asoslab o‘tganman. Agar O‘ljas og‘a ta’kidlaganiday, **yay** quyosh ma’nosini bildirgan bo‘lsa, yoz ham shu ma’noda kelgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Koshg‘ariyda quyosh qattiq issiqni anglatgan.

“Turkiy tillar etimologik lug‘ati”da ***gunesh*** “quyosh tushadigan tomon” ma’nosini anglatadi deyilgan va qoraqalpoq tilidagi kungay so‘zi keltirilgan. Hozir ham Qashqadaryoning Dehqonobod tumanida soylarning quyosh tushadigan tomonini ***kungay***, quyosh tushmaydigan tomonini ***terskay*** deyishadi. Turk tilidagi ***güney*** so‘zi janub, janubiy tomon ma’nosida keladi. Bu ham tilimizdagi ***kungay***ga yaqin. Chunki quyosh janubdan chiqadi.

Nima bo‘lganda ham so‘zning oxirgi ***yesh*** qismi ***gunesh*** so‘ziga ham ***quyash*** so‘ziga ham taalluqli. E.Sevortyan so‘z tarkibidagi ***yesh*** qismini ildiz sifatida quyoshli, issiq joy ma’nosida deb izohlagan.

Eshqobil SHUKUR

“Jadid” gazetasi muharririyati hamda muassislari O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bo‘lim boshlig‘i, uyushma a’zosi, shoir

Mansur JUMAYEV

bevaqt vafot etgani munosabati bilan marhumning oila a’zolariga chuqur hamdardlik bildiradi.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

OSTONASI TILLO UY

Bu hikoyani menga bir hamkasbim aytib bergandi. Ko‘p vaqt bu hikmatomuz voqea menga uyqu bermadi.

Hayotda o‘z o‘rnimni topib, mahalla-ko‘yda izzatga erishib, oltita farzandni o‘qitib, uyli-joyli qilishimga bobom sababchi bo‘lgan. U kishi o‘ttizinchi yillar ocharchiligini ko‘rgan, Ikkinchi jahon urushida qatnashgan, bir necha bor yarador bo‘lgan. Atigi yettinchi sinfni tugatgan bobomning bilimi hozirgi oliy ma’lumotlilardan kam emasdi deb o‘ylayman. Ana shu “hayot doshqozonida qovurib olingan” bobom menga ikkita qoidani o‘rgatgan edi: “Xotinning va qozonning arzoniga uchma!” Men shaharlik qizga ko‘ngil qo‘yib, uylanaman, deb qaror berganimda onam ro‘moli chetini tishlab, bosh chayqagandi: “Bobong nima derkin? Bolam, teng tengi bilan, shaharlik qizlarga qancha qalin to‘lash kerakligini bilasanmi? Undan ko‘ra, o‘zimizni qishloqni odmisiga uylanaqol”, dedi.

Lekin... Kutilmaganda bobom men taraf bo‘lib, onamni ko‘ndirdi. Sovchilikka borgan amma-xolalarim jiyilib quda tomon qalindan tashqari juda ko‘p sarupo so‘rayotganini aytishdi.

Bobom:

– “Nima so‘rasa, shuni beringlar. Yuragim sezib turibdi, qadami qutlug‘ keladi, bergan buyum-suyumlaringni o‘rni to‘lib ketadi. Palagi toza, ostonamiz tillo bo‘ladi, – dedi.

To‘y oldi bordi-keldilari ancha davom etdi. Ziyoli oila ekan, sarupo haqidagi gaplarning hammasi hazil ekan: ikki yosh baxtli bo‘lib ketishsa, shu ular uchun eng qimmatbaho tuhfa ekanini aytishibdi.

To‘yimizdan bir yil o‘tib, ukam uylanadigan bo‘ldi va bizni yangi tiklangan xo‘jalikka kuzatib qo‘yishdi. Ertasiga ikki yosh qo‘l ushlashib, markaziy bozorga qozon sotib olish uchun bordik.

– Hoy, yigit, nima izlayapsiz? – so‘radi sotuvchi ayollardan biri.

– Qozon, – dedim.



– Talabamisan? Menda arzon, kichkina qozoncha bor, – dedi u qoshi bilan uyqashgan buyumlarga ishora qilib.

– Arzonini keragi yo‘q. Sho‘rvasi tatimaydi. Menga asl va kattarog‘i kerak.

– Nima qilasan katta qozonni? Bola-chaqang bo‘lmasa, xotining ikkovingga kichkina dekcha ham bo‘laveradi-ku?

– Bobom xotin va qozonning arzoniga uchma, deb uqtirgan, – degandim, sotuvchilar kulib yuborishdi.

– Unda beri kel, eng qimmat qozon menda...

Savdolashmay, so‘ragan pulini berib, katta qozon sotib oldim. Bu qozon uyimizga haqiqatdan ham qut-baraka olib keldi. Oltita farzandimiz bo‘lishini bobom sezgan bo‘lsa kerak. Lekin, rafiqam qadamining qutlug‘ligi bu qozondan ortib tushgandi: birinchisi o‘g‘il, ikkinchisi qiz, uchinchisi o‘g‘il, to‘rtinchisi qiz, beshinchisi o‘g‘il, oltinchisi qiz. Hammasi aqli raso, to‘rt muchasi sog‘. Pazandaligi, pokizaligi mahalla-kelinlariga dastak. Ozoda uyni farishtalar tark etmaydi, degan edi bobom. Bizning uy doim saranjom-sarishta. Vaqti yetib, bo‘y cho‘zib, o‘g‘il bolalar uyni ostin-ustun qilib yuborgan paytlari qizlarim bir zumda tartibga keltirib qo‘yardi, gohida daladan qaytgan onasi bu beboshlikni payqamasdi ham. Men institutda ilmiy ish bilan band edim. “O‘tish davri”da ko‘p ustozlar maoshi kam deb bu sohani tark etishgani sir emas. Men ham bozorni mo‘ljallab qoldim. Bir kuni rafiqamga bu haqda gap ochdim.

– Bozorga ketaman, deb o‘ylamang. Men ilmiy ish bilan shug‘ullana olmadim, endi siz bu ishni tashlamang, – deb qisqa qayirdi. – Mayli, maoshi kam bo‘lsa ham gap barakada. Sabr qilaylik...

Shunda bobomning yana bir dono gapi yodimga tushdi. “Sho‘rpeshana erkakning xotini erini qo‘riydi, sho‘rpeshana xotinning eri yerini qo‘riydi”.

Bobomeros to‘qqiz so‘tix yerni birgalashib issiqxona qildik, limu, bodring, patinjon yetishtirdik. Ayolim mendan kam mehnat qilmadi. Bir og‘iz zorlanmadi, boriga shukr qildi, yo‘g‘iga sabr. Bugun esa... piri badavlatmiz: ko‘nglimiz, ko‘zimiz to‘q, bolalar o‘qimishli, asosiysi mehrli. Ro‘zg‘orimiz barakali... Uyning ostonasini tillo qiladigan sehrgar sizning ayolingiz bo‘ladi.

Hayotimdan mamnunman va bo‘ydoq yigitlarga bobomning maslahatini beraman: “Xotin va qozonning arzoniga uchmanglar”.

Bahoroy DO‘SMATOVA
Facebook

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 827
Lotin yozuvidagi adadi – 11 904
Media kuzatuvchilar – 19 395
Buyurtma: G – 1140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 22:30
Sotuvda narxi erkin.